


O‘ZBEKISTON RESPUBLİKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



AJINIYOZ nomidagi NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK

URAZIMBETOVA NARGIZA QADIRBAEVNA

**MAVZU: «KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY DASTURI»da
QUYILGAN VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIYA
FANINING O'RNİ va AHAMIYATI**

5A 140802 -«Psixologiya» mutahassisligi

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI
OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

p.f.n.,dots. A.Urumbaeva

Nukus-2012

**Mavzu: «KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY DASTURI»da
QUYILGAN VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIYA
FANINING O'RNİ va AHAMIYATI**

R E J A:

KIRISH

**I-bob: TA'LIM TIZIMIDAGI «O'ZBEK MODELİ»ning TARAQQIYO TI va
UNING JAXON TSIVILIZATSIYASIDAGI O'RNİ**

- 1.1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning mohiyati
- 1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari
- 1.3. «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ni hayotga tatbiq etishning ahamiyati

2-bob: HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANI va UNING AHAMIYATI

- 2.1. Psixologiya tarixiga yangicha yondashuv
- 2.2. Psixologiyaning predmeti va fanlar tizimida tutgan o' rni
- 2.3. Shaxs va uning faolligi, faoliyat turlari

**3-bob: «MILLIY DASTUR»da QUYILGAN VAZIFALARNI AMALGA
OSHIRISHDA PSIXOLOGIYA FANINING O'RNİ va AHAMIYATINI OCHIB
BERISHGA QARATILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI va UNING
NATIJALARI**

- 3.1. Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari
- 3.2. Intellektual-ijodiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari
- 3.3. Yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini o'rganishning tajribadagi natijalari
- 3.4. Intellektual va ijodiy sifatlarning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyati

**XULOSALAR va TAVSIYALAR
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR
ILOVALAR (slaydlar)**

KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi va yangiligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakat taraqqiyotini, xalqning tinchligini, o'ziga **bosh maqsad** qilib olib, mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiy ettirish borasida o'sib kelayotgan avlodga etiborni **ustivor vazifa** deb belgiladi.

Mustaqil fikrlaydigan, o'z huquq va vazifalarini to'la anglagan, vatanparvar, fidoiy, bilimdon – yangi ongga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish islohat markaziga qo'yildi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, avvalombor, mavjud talim sohasini chuqur tahlil qilish va takomillashtirish zarurligi ko'rsatildi. Talim tizimi sohasida 1997 yilga qadar malum ishlar, yangiliklar amalga oshirildi, chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Biroq, bu tadbirlar davlatimiz oldida turgan vazifalarni amalga oshirishdagi talablarga to'la javob bera olmas edi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1997 yil Oliy Majlisning IX sessiyasida mustaqillik yillarida talim sohasida erishilgan natijalarga tanqidiy yondashib, kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar zarurligini asoslab berdi. Mazkur nutqqa ramziy manoda *«Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»* deb nom berildi. Ushbu tarixiy sessiyada I.A.Karimov xalqimizga *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»* va *«Kadrlar tayyorlashning milliy modeli»*ni taqdim etdi.

Prezidentning maxsus Farmoni bilan kadrlar tayyorlash, talimni isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb elon qilindi va Milliy dastur bosqichma – bosqich hayotga tadbiq etila boshlandi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'zining ilmiy asoslanganligi, noyobligi va ertangi kunga – XXI asrga mo'ljallanganligi bilan hayotimizda o'z o'rnini topdi, bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olindi, o'rganilmoqda, targ'ib etilmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning g'oyasi, maqsadi, fikrlar qamrovi teranligi bilan katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Mazkur dastur, uni ro'yobga chiqarish omillari, jamiyatda zamonaviy talimning yuksak qadriyatlarini anglab etish hissini yuzaga keltiradi. Bu qadriyatlar **barkamol shaxsni** shakllantirishga,

mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojiga o‘z ijobiy tasirini o‘tkazmoqda va bu jarayon takomillashib boraveradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» g‘oyasiga asoslanadi va unga xizmat qiladi. Mustaqil shaxsni shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo‘lib, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlarning va, ayniqsa, talim tizimi mazmunining takomillashtirilishini, ikkinchi tomondan esa bevosita ushbu masalani amalga oshirishni taminlovchi yagona tarbiya tizimini barpo etish lozimligini taqozo etadi.

Malumki, davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi. Davlatimiz Prezidenti I.A.Karimov takidlaginidek, Vatanimiz kelajagi islohatlarning taqdiri va ularning natijalari, xalqimizning bilim darajasi davr talabiga va tarraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassislar etkazib berib, o‘rnimizni egallashlariga bog‘liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati talim tizimini tubdan isloh qilishga katta etibor qaratayapti. Shunga ko‘ra, yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasidaga ko‘tarilmoqda.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun talim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o‘ziga xos talablari mavjud. **Birinchidan**, o‘quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi davlat tarmoq talim standartlari talablariga mosligini taminlash. **Ikkinchidan**, o‘quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat talim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasini to‘liq qamrab olishga erishish. Shuningdek, davlat talim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasidan tashqari fundamental va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o‘zlashtirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish bilan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash shartlari hisoblanadi.

Uzluksiz talimning faoliyat ko‘rsatish tamoyillaridan biri, talimning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, talim va yuksak intellektning nufuzidir.

«Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va manaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz talim tizimi orqali har tomonlama **barkamol shaxs** - fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ruyobga chiqariladi».¹

Shunday qilib, **shaxs tarbiyasi** – O‘zbekiston Respublikasi talim tizimi oldida O‘zbekiston Respublikasi «Talim haqida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» tomonidan belgilab berilgan **didaktik vazifa**dir. Aynan shuning uchun, pedagogik faoliyatda *psixologiya fanining so‘ngi yutuklarini* qo‘llanishi mamlakatimiz talim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida faol ishtirok etadigan, xalq xo‘jaligi, huquqiy, talim va boshqa vazifalarni hal qila oladigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zaruratidan kelib chiqqan.

Har ikkala xujjatda ham talim muassasalari o‘quv rejalariga **psixologik** fanlarining kiritilishi pedagog kadrlarga bo‘lgan zamon talablariga javob beradi. Bunda **an'anaviy psixologiya** fanining yillab yig‘ilgan tajribasi ham, pedagogika, pedagogik mahorat, o‘qitish metodikasidagi innovatsion texnologiyalarning yangi yutuqlari ham birdek qoplab olingan. Hujjatlarning *maqsadlaridan biri* – innovatsion texnologiyalarning psixologik-pedagogik strategiyasini ilmiy asoslab berish, shuningdek, pedagogik innovatsiyalar asosida yotuvchi **shaxsning** bilish faoliyatini tahlil qilib berishdan iboratdir.

Talim islohotlari jarayonida salohiyatli, erkin, ijodkor shaxsni tarbiyalash o‘ta dolzarb muamolardan bo‘lib hisoblanadi. Chunki, O‘zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi ana shu jamiyatni quruvchi va uning kelajagiga xizmat qiluvchi, saviyasi yuksak, hozirgi davr taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan komil, ijodkor inson va malakali mutaxassislariga bog‘liq. Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ishlab chiqilgan talim tizimining **milliy modelida** ana shu muammo – yani, komil inson va mutaxassis tayyorlash asosiy maqsad qilib olingan.

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1997, 42-bet.

Yuqorida fikrlardan ko‘rinib turibdiki, **barkamol shaxs** deganda vatanparvar, insonparvar, mustaqil fikrlaydigan, ongli, ijordkor, izlanuvchan, yangillika intiluvchan etuk inson tushuniladi. Demak, hozirgi davrdagi o‘zgarishlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuksak madaniyatlilik, malaka, onglilik, ijodkorlik, jamiyat va xalq oldida o‘z masuliyatini his eta oladigan shaxsni tarbiyalashni talab etadi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning hammasi biz tanlagan magistrlik dissertatsiya ishining **dolzarbligin va ahamiyatliligin** ko‘rsatadi.

Muammoning tadqiq qilinganlik darajasi: Malumki, pedagogik psixologiya fanida aynan talim psixologiyasi muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha yunalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar etarli bo‘lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida iqtidorli talabalar psixologiyasi muammosining zarurligini ko‘rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni aloxida qayd etish mumkin. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi differentsial psixologiya metodologiyasiga taallo‘qli ayirim umumiy jixatlarni pedagogik psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham pedagogik psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan xolda differentsial psixologiya uchun muxim bulgan u yoki bu jixatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar.

Bular ichida talim psixologiyasining muvaffakiyatli tashkil etilishi uchun muxim nazariy-ilmiy axamiyat kasb etuvchi pedagogik psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni (B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson, Djenni Stil, S.L.Rubinshteyn, A.Anastazi, V.N.Drujinin, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, N.S.Leytes, M.V.Klarin, N.A.Konoplyova, V.İ.Bogolyubov, L.B.Farberman, L.V.Golish, V.Tokareva, Sh.Kurbanov, E.Seyitxalilov, M.G.Davletshin, R.Gaynutdinov, K.Xoshimov, V.Karimova, N.N.Azizxodjaeva, B.Qodirov, U.Tolipov, R.İ.Sunnatova, G‘.B.Shoumarov, E.G‘oziev, Z.Nishanova va boshqalarni) aloxida kayd etish mumkin. Bu esa talim psixologiyasining bugungi kundagi ayirim dolzarb jixatlari, muammolari va uning echimlari haqida uylashga, fikr muloxaza yuritishga va o‘z tadqiqotimiz

vazifalarini belgilab olishga nazariy - ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb uylaymiz.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog‘liqligi: Bu tadqiqot ishi davlatimiz talim tizimidagi islohotlarning asosiy yunalishlari bo‘lib xisoblanadigan oliy talim yunalishi bilan, shu jumladan, «Talim haqida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» hamda 2012 yili qabul kilingan «Mustaxkam oila yili» davlat dasturi asosida oliy talim muassasalari talaba yoshlarini tarbiyalash masalalari buyicha tasdiklangan ilmiy-tadqiqot ishlarning rejalari bilan bevosita bog‘lik. Shuningdek, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «pedagogika va psixologiya» kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan o‘zviy bog‘lik.

Tadqiqot predmeti – «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» va hozirgi zamon psixologiya fani xususiyatlari.

Tadqiqot obekti – oliy o‘quv yurtlaridagi, jumladan, Nukus davlat pedagogika institutidagi talim-tarbiya jarayoni va iqtidorli talaba yoshlar.

Tadqiqot ishining maqsadi – talim tizimidagi «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» hamda «o‘zbek modeli»ning taraqqiyotini ko‘rsatish, shuningdek, ushbu jarayondagi psixologiya fanining o‘rni va ahamiyatini, ayniqsa, iqtidorli yoshlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishida kuyidagi **ishchi gipoteza** ilgari so‘rildi: «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fanining o‘rni va ahamiyati behiyosdir, chunki u o‘ziga xos xususiyatlariga ega (jumladan, iqtidorli talabalar psixologiyasi) va uni tadqiq hamda tahlil qilish talim tizimidagi «o‘zbek modeli»ning taraqqiyoti va uning jaxon tsivilizatsiyasidagi o‘rnini belgilash uchun bugungi kunda dolzarb muammo bo‘lib xisoblanadi.

Maqsadga erishish xamda gipotezani tekshirib ko‘rish uchun tadqiqot jarayonida kuyidagi belgilangan **vazifalarni** xal etishimiz zarur:

- ◆ muammo buyicha psixologik-pedagogik manbalarni, adabiyotlarni va malumotlarning *nazariy tahlilini tavsiya etish;*

- ◆ *talim tizimidagi «o'zbek modeli»ning taraqqiyoti va uning jaxon tsivilizatsiyasidagi o'rnini aniqlash maqsadida:* «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning mohiyati, kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga tatbiq etishning ahamiyati, talim sohasidagi davlat siyosati mazmuni, talim muassasalarida davlat va jamiyat boshqaruvining psixologik – pedagogik asoslari *haqida mulohazalar yuritish va amaliy tavsiyalar berish;*
- ◆ *hozirgi zamon psixologiya fani va uning ahamiyatini isbotlash maqsadida:* psixologiya tarixiga yangicha yondashuv, psixologiya predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rnini, shaxs va uning faolligi, faoliyat turlari, ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi, ehtiyojlar faollikning manbai sifatida, shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari *haqida to'liq tushunchalarni berish;*
- ◆ *«Milliy dastur»da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fanining o'rnini va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari va uning natijalarini ko'rsatish maqsadida:* yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari, intellektual-ijodiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari, yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini o'rganishning tajribadagi natijalari, talim jarayonida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning pedagogik-psixologik asoslarini yaratish, yoshlarning intellektual sifatlarini aniqlash va rag'batlantirish usullari hamda intellektual va ijodiy sifatlarning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida malumotlarni *tahlil qilish;* shu bois tajribada o'tkazilgan amaliy ishlarni *taqdim etish.*
- ◆ dissertatsiya mavzusiga bog'liq taqdimot materiallarini tayyorlash;
- ◆ dissertatsiya buyicha xulosalar chiqarish.

Dissertatsiya maqsadini va vazifalarini **amaliyotga tadbiq qilinishi** bosqichma-bosqich 2010-2012 yillari olib borildi. Tadqiqotning *barcha bosqichlarida* talim-tarbiya jarayonida pedagogik institut ish faoliyati ko'zatilib borildi, hamda professor-o'qituvchilar va talabalar bilan so'xbat, anketa va test ishlari olib borildi. Ilmiy adabiyotlarni va manbalarni o'rganish asosida iqtidorli

talabalarga oid tadqiqotlarning xususiyatlari muammosini taxlil qilishning asosiy yunalishlari aniqlandi, talim muassasalari xujjatlarini taxlil qilish natijasida ularning pedagogik tajriybalari umumlashtirildi, pedagoglar kasbiy faoliyati ish mazmuni chuqur o'rganildi. Olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchligi oldimizga qo'yilgan ishchi gipotezani isbotladi.

Tadqiqotning ilmiy bazasi sifatida Nukus davlat pedagogika instituti belgilandi. Tadqiqotda ushbu muassasaning o'qituvchi-pedagoglari, mutaxassis-xodimlari, pedagogik jamoalar hamda talaba yoshlar qatnashdilar.

Ilmiy tadqiqotning metodologik asoslari quyidagilardan iborat: didaktika (talim nazariyasi), uning asosiy tamoyillari va kategoriyalari; bilish nazariyasi, psixologiyaning asosiy tamoyillari va kategoriyalari: jumladan, determinizm tamoyili, ong va faoliyatning birligi tamoyili, nazariya va amaliyotning bog'liqligi tamoyili, talim-tarbiyadagi shaxsiy yunaltilganlik tamoyili, talim-tarbiya haqidagi gumanistik psixologiyaning qonuniyatlari, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy kontsepsiyasi, A.N.Leontev, V.A.Petrovskiy va boshqalarning shaxs nazariyalari, shuningdek, oliy maktab psixologiyasi, pedagogik psixologiya, differentsial psixologiya xususiyatlari muammosini tadqiq qilishgan etakchi rus va o'zbek olimlarining g'oyalari. Shuningdek, biz dissertatsiyamizda yosh avlodni tarbiyalashda Sharq mutaffakirlarining falsafiy va pedagogik qarashlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning har tamonlama barkamol, komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlariga, xususan, «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida»(2011), «Yuksak manaviyat - engilmas kuch»(2008) asarlaridagi g'oyalariga hamda O'zbekiston Respublikasi «Talim haqida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi», «Milliy Mustaqillik mafkurasi» hamda 2012 yili qabul qilingan «Mustahkam oila yili» davlat dasturidagi ko'rsatmalarni boshchilikka olgan hamda ularga suyangan holda ish olib bordik.

Ish jarayonida yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maksadida bir qator **ilmiy-tadqiqot metodlari** qo'llanildi:

- ◆ Ilmiy-psixologik adabiyotlarni, maxsus monografiyalarni, ommaviy axborot vositalari materiallarini hamda Internet sayt ma'lumotlarini o'rganish va tahlil qilish metodi;
- ◆ Oliy o'quv yurtlarining, jumladan, pedagogika instituti professor-o'qituvchilarining pedagogik tajribalarini o'rganish va umumlashtirish metodi;
- ◆ Oliy o'quv yurtlarining, jumladan, pedagogika institutidagi talim-tarbiya jarayonni va talabalarni ko'zatish metodi;
- ◆ Talaba-o'quvchilar hamda o'qituvchi-pedagoglar bilan so'zlash va intervyu metodi;
- ◆ Tajriba (eksperiment) va anketa metodlari;
- ◆ Test va faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlari.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Olingan ma'lumotlar va xulosalar hozirgi zamon pedagogika va psixologiya fanlaridagi mavjud bulgan iqtidorli talabalarga oid tadqiqotlar haqidagi tushuncha va nazariyalarni yanada to'liqlashtirishadi va chuqurlashtiradi. O'tkazilgan izlanishlar talim muassasalaridagi o'qituvchi-pedagoglar ishlarining mazmuniga va iqtidorli talabalar faoliyatiga yangicha nuqtai nazar bilan yondoshishga imkoniyatlar to'g'riadi.

Tadqiqotning amaliy zarurligi: Dissertatsiya ishida yoritilgan materiallar oliy talim o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariga, «pedagogika va psixologiya» talim yunalishidagi tahsil olayotgan talaba yoshlarga va barcha pedagog - o'qituvchilarga ularning amaliy ishlarida zarur bo'lib xisoblanadi.

Tadqiqotning birinchi nazariy-izlanish bosqichi: 2010-2011 yillarda olib borildi. Bunda muammoga oid falsafiy, psixologik, pedagogik yunalishidagi ilmiy adabiyotlar, manbalar o'rganib chiqildi, shuningdek, mavzu nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqotning maqsadi, mazmuni, vazifalari belgilab olindi.

Tadqiqotning ikkinchi - tajriba bosqichi: 2011-2012 yillarda o'tkazildi, bu bosqichda tadqiqotning dasturi tuzib chiqildi, uning nazariy va amaliy asoslari, mazmuni, tajriba mashg'ulotlarining shakl va usullari ishlab chiqildi. Tajriba natijalari tahlil qilindi, samaradorlik darajasi umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi 2010-2012 yillar davomida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasining ilmiy-uslubiy va uquv-uslubiy seminar majlislarida, davlat pedagogik amaliyoti tajriyba ishlari jarayonida, pedinstitut magistrantlarining ilmiy anjumanlarida bayonat shaklida muhokama qilinib borildi. Tadqiqot natijalari va tavsiya etilgan metodik ko'rsatmalar pedagogik oliy talim muassasalari o'qituvchi pedagoglari hamda iqtidorli talabalari ishlarida foydalanilishi mumkin.

Natijalarning nashr etilishi: Dissertatsiya mavzusiga oid materiallar «O'qituvchi va o'zluksiz talim» (№4 soni, 2011 yil) respublika ilmiy-uslubiy jurnalida, jumladan, «Shaxs psixologiyasida xarakter va uning ahamiyati» mavzusida ilmiy maqola sifatida chop etildi, shuningdek, institut ko'lamida 2012 yil 30-aprel – 3-may kunlarida «Mustahkam oila yili»ga bag'ishlangan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjuman majlisida «O'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish psixologiyasi» mavzusida ilmiy bayonat shaklida rasmiylashtirildi va nashrga chop etishga topshirildi.

Dissertatsiyaning tarkibi va xajmi. Dissertatsiya ishi: kirish bo'limi, o'chta bobtan, yakuniy bo'limi, adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat. Ko'lami - 78 sahifa.

1-bob: TALIM TIZIMIDAGI «O‘ZBEK MODELI»ning TARAQQIYO‘TI va UNING JAXON TSIVILIZATSIIYASIDAGI O‘RNI

1.1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohatlarni amalga oshirila boshladi. Totalitar usuli asosida ish yuritayotgan xalq talimi tizimida ham so‘nggi o‘n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi respublika hamda mutassaddi tashkilotlarni talim tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu borada sayi – harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O‘zbekistonning ilk “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning mazmunida respublika talim tizimi, uning asosiy yo‘nalishlari, maqsad, vazifalari, talim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o‘z ifodasini topgan edi.

1997 yil yanvar oyiga kelib, “Talim to‘g‘risida”gi Qonun va unda ilgari surilgan g‘oyalarning amaliyotga tatbiqi, mavjud ahvol, yutuq va kamchiliklar tahlil etildi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra talim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o‘rinlarda chuqur ilmiy asosga ega bo‘lmaganligi mulum bo‘ldi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ishlab chiquvchi maxsus komissiya tarkibi tayinlandi. 1997 yilning iyul oyida har ikki meyoriy hujjat mazmuni o‘rganilib chiqildi va umumxalq etiboriga xavola qilindi. Muhokama jarayonida bildirilgan fikr – mulohazalar masul komissiya tomonidan o‘rganildi. Umumxalq muhokamasida o‘tkazilgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” O‘zbekiston Respubikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi istiqlolining talim muassasalarida xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, aqliy salohiyati hamda ijodiy qobiliyati belgilaydi, degan g‘oya “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yaratilishi uchun asos bo‘ldi. Mazkur hujjat respublika talim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini ochib beruvchi muhim

hujjatdir. Unda talimiy islohotlarning asosiy maqsadi inson o'zining har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitini va tasirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq – atvorning andozalarini o'zgartirishdan iborat ekanligi qayd etib o'tildi.

1992 yilda O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingandan buyon o'tgan davr mobaynida yangi o'quv rejalari, dasturlari, darslik va qo'llanmalar yaratildi. Zamonaviy didaktik talablar talimni tashkil etish yo'llari, metod va vositalarini aniqlash, o'quv yurtlarida attestatsiya o'tkazish va akkreditatsiyalash ishlari amalga oshirildi. Mazkur davrda respublika mehnat bozori (eng avvalo, qishloq joylarida mehnat bozori)ni shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar – texnika talimi qayta tashkil etildi.

Fan va talim sohasida xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi hamda bu boradagi dastlabki yutuqlar qo'lga kiritildi. Mutaxassislar tayyorlash hamda talim – tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanadi.

Ushbu holatlar mamlakat istiqboli uchun xizmat qiluvchi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni "Talim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va talim tizimidagi jahon miqiyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb – hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy – siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri olib borish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganligidir.

Dastur kadrlar tayyorlash **milliy modelini** ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, talim va kasb – hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy – siyosiy, huquqiy, psixologik – pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning **maqsadi** - *talim sohasini tubdan isloh qilish, uni oʻtmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan toʻla xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak manaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.*

Ushbu maqsadni roʻyobga chiqarish quyidagi **vazifalar** hal etilishini talab etadi:

- talim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik xuquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan taminlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini koʻtarish;
- talim oluvchilarni manaviy – axloqiy tarbiyalashning va manaviy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- talim va kadrlar tayyorlash talim muassasalarini attestatsiyadan oʻtkazish va akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida oʻzaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich amalga oshirilib borildi. Har bir bosqich muayyan vazifalarni hal etishni nazarda tutadi. Vazifalar quyidagilardan iboratdir:


Birinchi bosqich: (1997 - 2001) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan ilmiy – uslubiy, moliyaviy – moddiy shart – sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich: (2001 - 2005) milliy dasturni toʻliq roʻyobga chiqarish. Mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda oʻta aniqliklar kiritish.

Uchinchi bosqich: (2005 va undan keyingi yillar) toʻplangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish

istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tarkibiy tuzilishi (1-shakl) quyidagicha aks etadi:




1 – shakl. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tarkibiy tuzilishi.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismi

Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarning manaviy etukligi, intellektual salohiyatga bog‘liq ekanligi bilan belgilanadi.

Fuqarolarning manaviy etukligi, intellektual salohiyati, talim tizimining mazmuni shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va manaviy shart – sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy etiqodlari asosida shakllantiriladi (2-shakl).




2-shakl. “Milliy model”ning tarkibiy tuzilishi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yaratilishida mazkur jihatlar o‘rganildi. Milliy dastur asosini O‘zbekistonning taraqqiyotini taminlay oladigan, uni jahonning ilg‘or mamlakatlari darajasiga qo‘tarishga hissa qo‘shuvchi, dadil mustaqil fikrli, bilimli malakali mutaxassis ayni paytda insoniy ijobiy sifatlarga

ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalash voyaga etkazish jarayonini asoslab beradi. Barkamol shaxs va etuk malakali mutaxassis milliy model mohiyatini to'laqonli ifoda etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat talim – tarbiyadan iborat bo'lib qolmay, bir – biriga bog'liq ko'pgina hayotiy bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Milliy model bu shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz talim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro uzviy birligi va hamkorligi, ularning bir – biriga aloqasini aks ettiradi (3 - shakl).



3-shakl. “Milliy model”ning tarkibiy qismlari va ularning o‘z-aro aloqadorligi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha tariflash mumkin.

Shaxs – kadrlar tayyorlash milliy tizimining bosh subekti va obekti, talim sohasidagi xizmatlarning istemolchisi va ularni amalga oshiruvchisi. Shaxs uzluksiz talim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib, fan asoslarini puxta egallab, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishib, shuningdek, ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘rganib hamda izchil uzluksiz ravishda tashkil etuvchi tarbiyaviy tasirlar asosida insoniy sifatlarni o‘zlashtirib borara ekan yillar davomida unda yuksak manaviyat salohiyati va muayyan yo‘nalish bo‘yicha kasbiy mahorat shakllanib boradi. Shaxs eng avvalo, o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘ya olishi hamda unga erishish yo‘lida tinimsiz izlanishi, o‘qib o‘rganishi lozim. Shu tariqa u ijtimoiy raqobatga chidamli kadr (mutaxassis) sifatida kamolga etadi.

Shaxsning o'z – o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lishi, talim sohasidagi xizmatlaridan to'laqonli va samarali bilish uning har tomonlama rivojlanishi, etuk mutaxassis bo'la olishi yo'lidagi muhim omilidir. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotiga alohida e'tibor qaratilgan.

Davlat va jamiyat – talim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatni tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishining kafillari.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham ahamiyatga egadir. Fuqarolari komil inson bo'lgan mamlakat istiqboli porloq bo'ladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarini yashash, mehnat qilish, shuningdek, iqtisodi va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta bilishi uchun etarli darajada shart – sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subekt sifatida namoyon bo'ladi.

Uzluksiz talim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, talimning barcha turlarini, davlat talim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz talim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb – hunar malumotlarini o'zlashtiradi, komil inson va malakali mutaxassis sifatida aks etishi lozim bo'lgan sifatlariga ega bo'lib, unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Bu esa shaxs kamolotida muhim ahamiyatga egadir. Demak, uzluksiz talim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Unga ko'ra mamlakatimizda uzluksiz talim tizimining faoliyati davrning izchilligi asosida taminlanadi. Uzluksiz talim quyidagi talim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha talim;
- umumiy o'rta talim;
- o'rta maxsus, kasb – hunar talimi;
- oliy talim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi talim;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari talim.

Fan – milliy modelimizning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u barkamol inson va etuk mutaxassisni shakllantirishning ilmiy pedagogik va psixologik asoslarini yaratishni, shuningdek, fan hamda mutaxassislik yo'nalishlari va tarmoqlari bo'yicha talim kontseptsionalari, o'quv dasturlari reja va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish, talim jarayonini tashkil etishni moddiy va manaviy jihatdan qo'llab – quvvatlashni o'z zimmasiga oladi.

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy moddiy – texnika jihatdan taminlash jarayonining qatnashchisi.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi istemolchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan bir qatorda sifatli hamda yuksak saviyadagi mutaxassisning tayyorlab etishtirish yo'lida uzluksiz talim hamda fan tarmoqlarini moliyaviy jihatdan qo'llab – quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash milliy tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Milliy modelimiz kontseptsionalining mazmuni milliy turmush tarzimiz va manaviy – axloqiy ananalarimiz bilan hamnafasdir. Chunki bizda qadimdan “marifatli inson” tushunchasi ancha keng manoni anglatadi. Unutmasligimiz kerakki, marifat halqimiz, millatimiz qonidadir. Ananaviy sharqona qarashga ko'ra, marifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda manaviyat va go'zal axloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, komil inson deganda aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati milliy tariximiz va hayotimiz bilan bog'lanib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bevosita o'zimizga mos, o'zimizga mos bo'lgan, takrorlanmas, buyuk tariximiz, ananalarimizga asoslangan va shu bilan

birga hozirgi davr talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash «milliy modeli» yaratildi.

Dasturimizdagi modelimizning milliyligi ham ana shulardan iborat. Shunisi, diqqatga sazovorki, “Kadrlar tayyorlash milliy modelimiz” o‘z ilmiy salohiyati, chuqur falsafiy manoga ega ekanligi bilan xalqaro miqiyosida tan olindi va o‘rnini topdi. Masalan, 1998 yil Avstraliyada kelgusi asr talimi istiqbollari bag‘ishlangan “Osiyo Tinch okean miqiyosida XXI asrda va talim muammolari” deb nomlangan xalqaro anjumanda talimni rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi faqat ikki mamlakat AQSh va O‘zbekistonda mavjudligi takidlandi. Unda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Anjuman qatnashchilari O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlisining IX sessiyasidagi nutqining asosiy mazmuni bilan tanishdilar. Quvonchli jihati shundaki, anjuman ishtirokchilari mamlakatimizda ishlab chiqilgan yangi talim tizimining aniq kontsepsiyasini har tomonlama puxta o‘rganilganligini, uning amalga oshirilishi esa dunyoning ko‘pgina davlatlaridagi kadrlar tayyorlash sohasida kechayotgan o‘zgarishlarga munosib hissa qo‘shishini etibor etishdi.

1.3. «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ni hayotga tatbiq etishning ahamiyati

“Kadrlar tayyorlash milliy modeli”ni amalga oshirish – bu xalqimizning azaliy orzularini amalga oshirish demakdir. Buning uchun davlat dasturi ishlab chiqilib, uni davlat siyosati darajasida bosqichma – bosqich amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur masala davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi deb elon qilinishi esa yurtboshimizning siyosiy irodasi va ilmiy jasoratini yana bir bor isbotlaydi.

Darhaqiqat, milliy dasturni qabul qilishdan ko‘zlangan maqsad juda ko‘pdir. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to‘la amalga oshishi, *birinchidan*, mamlakatimizdagi ijtimoiy – siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs – komil inson shakllanadi. Ular hayotga tamomila boshqacha nigoh bilan qaraydilar. *Ikkinchidan*, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tadbiqi kishining jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayonini tezlashtiradi. Zero, har bir inson o‘smirlik, yani voyaga etish arafasidanoq jamiyatda o‘z o‘rnini

topa olishi va belgilay bilishi lozim, aks holda bu uning hayot yo'llarida sarson, maqsadsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Bu esa yoshlarning o'ziga ishonchini so'ndirishi, ayrim hollarda jamiyatda o'z o'rnini topa olmaslikka, o'z foydasi va jamiyat foydasini taminlay olmasligi sabab bo'ladi. Demak, uning shaxs bo'lib shakllanishi qumon bo'lib qoladi.

“Kadrlar tayyorlash milliy modeli”ni hayotga tadbiq etish bilan ana shunday salbiy oqibatlarining oldi olinadi. O'zi xohlab, ko'nglidagi kasb bo'yicha ishlaganga ne etsin! Bu o'z – o'zidan tanlangan ishidan, hayotidan qoniqish hissini paydo qiladi. Masalan, 1998 – 1999 o'quv yilidan boshlab akademik litsey va kasb – hunar kollejlari o'z bitiruvchilarini chiqara boshladilar. Yani, komil insonlarning jamiyatga, ishlab chiqarishga kirib borishi boshlandi. Tabiiyki, bu jarayon yildan – yilga takomillashib, salmog'i tobora osha boradi va o'z navbatida ko'zlangan natijaga erishishimizga zamin tayyorlaydi.

Uchinchidan, “Kadrlar tayyorlash milliy modeli” jamiyatimizning keng potentsial salohiyatidan foydalanishda katta ahamiyatga ega ekanligiga etibor qaratgan. Tabiiyki, jamiyatdagi har bir inson o'ziga xos salohiyatga ega bo'ladi. Agar mazkur ichki imkoniyatlarini to'la namoyon etish uchun barcha sharoitlar yaratilsa, har bir inson o'z imkoniyatlari va istedodini oilasining farovonligi uchun sarf etsa, bu jamiyat naqadar yuksak natijalarga erishishini tasavvur etish qiyin emas.

To'rtinchidan, milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda yangi hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Odamlar olamon bo'lib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z mehnati, o'z xulosasi bilan yashay boshlaydi. Eng asosiysi bunday kishilarga chetdan hech qanday nopok kuch, buzuq g'oyalar, quruq shirolar, chaqiriqlar bilan tasir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarning o'z tanlangan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch toydira olmaydi. Aynan shu xislatlar milliy xavfsizlikning mustahkamligiga olib keladi.

Beshinchidan, O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo'ygan. Bu yo'lda birinchi, lekin juda muhim qadamlar qo'yilgan. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning hayotga tadbiq etilishi halqaro

hamjamiyatda o'z o'rnimizni mustahkamlashga olib keladi. Negaki, dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedagi, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg'or texnologiyalardadir. Prezident Islom Karimov tomonidan aytilgan “Kuch–bilim va tafakkurda” degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

Xulosa qilib aytganda, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol shaxsni insonni va shu tariqa ongli jamiyatning shakllanishiga, yani yangicha ongga, tafakkurga ega bo'lgan shaxslarning ko'payishiga va bu o'z navbatida haqli ravishda “portlash effekti” ning sodir bo'lishiga olib keladi.

Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Tafakkur” jurnali bosh muharririga bergan intervyusida aytganidan teranroq bayon etish mumkin emas: “Talimning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart – sharoit yaratilsa, tafakkur har bir qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xolos bo'ladi. Men “portlash effekti” deganda aynan shunday holatni nazarda tutmoqdaman” (I.A.Karimov).

1.3.1. Talim sohasidagi davlat siyosati mazmuni

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan o'zbek Respublika talimini tashkil etish sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, uni yuksak darajada takomillashtirish va jahon talimi darajasiga ko'tarish kabi masalalarga alohida etibor qaratildi. Ana shu etiborning yorqin isboti talim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari hamda talimning O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor yo'nalishi deb elon qilinganligi bilan belgilanadi.

Talim sohasida davlat siyosatining **asosiy printsiplari** quyidagilardan iborat:

1. Talim va tarbiyaning *insonparvar, demokratik tavsifda* ekanligi. Davlatimizda tashkil etilayotgan talim va tarbiya jarayonida shaxs, or-nomusi, qadr – qimmat, manaviy hamda marifiy huquqlarini hurmat qilish, uning iqtidori

va qobiliyatini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, xohish – istagi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalari nazarda tutiladi.

2. Talimning *uzluksizligi va izchilligi*. Talim jarayonida didaktik xarakter kasb etib, o'quvchilarga berilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko'nikma va malakalarning uzluksiz, doimiy ravishda shakllanishini taminlaydi. Uzluksiz va izchillik malumotlar, hodisalar va fan asoslarini o'rganishning tartibga solinishini, avvalgi va keyingi materiallar o'rtasida ketma – ketlikni taminlashni anglatadi. Har bir o'quv fani muayan mantiqiy izchillikda o'qitilishi lozim. Mazkur printsipt shu holatni ifoda etishga xizmat qiladi.

3. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb – hunar talimining *majburiyligi*. Mazkur printsipt O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb – hunar talimini olishning respublika fuqarolari uchun shartligini ifodalaydi. Respublika hududida umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb – hunar talimi bepul bo'lib, ularning faoliyatini tashkil etish respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. O'rta maxsus kasb – hunar talimi muassasalariga o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadilar.

4. O'rta maxsus, kasb – hunar talimi yo'nalishini akademik litsey yoki kasb – hunar kollejida *o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi*. Ushbu printsipt o'rta maxsus, kasb - hunar talimi yo'nalishini o'quvchining o'z qiziqishi, ehtiyoji hamda layoqatiga mosini (muayyan mutaxassislikda ixtisoslashtirilgan akademik litsey yoki malum kasb – hunar kollejida tahsil olishni), erkin tanlash huquqiga egaligini ifoda etadi.

5. Talim tizimining *dunyoviy tavsifda* ekanligi. Ushbu printsipt respublika hududidagi mavjud talim muassasalarida yoshlarga dunyoviy tavsifdagi ilmiy bilimlarni berishni nazarda tutadi. Talim muassasalarida jangari, buzg'unchilik shuningdek, milliy nizolar hamda diniy adovatlarni kelitrib chiqarishga xizmat qiluvchi g'oyalarning targ'ib etilishi, ular yoshlar ongiga singdirilishi qonun yo'li bilan taqiqlanadi. Yoshlarga diniy bilimlarni berish davlat akkreditatsiyasidan o'tgan (respublika Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan) hamda diniy talim – tarbiya berish huquqiga ega talim muassasalari, shuningdek, maxsus diniy

malumotlarga ega ushbu faoliyat bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

6. Davlat talim standartlari doirasida talim olishning hamma uchun *ochiqligi* respublika fuqarolari istalgan talim muassasalari (talim muassasasi Nizomida ko'zda tutilgan talablarga muvofiq) da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 16 avgustda qabul qilingan "Umumiy o'rta talimning davlat talim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, bu borada o'rta maxsus, kasb – hunar va oliy talimning davlat talim standartlari to'g'risidagi RN asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi hamda oliy va o'rta maxsus talim vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan DTS talablariga muvofiq talim olish huquqiga egadirlar.

7. Talim dasturini *tanlashga yagona tabaqalashtirilgan* yondashuv. Ular talim bo'yicha yaratilgan dasturlar orasidan o'quv dasturin yaratishga qo'yiladigan talablarga muvofiq yaratilgan hamda eng maqbul deb topilgan dasturni tanlab olish asosida talim muassasalarida talimni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mutaxassislik, kasb – hunar talimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, muayyan talim muassasalari malum mutaxassislik va kasb – hunar talimining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish asosida yaratilgan dasturlar talim jarayonini tashkil etishlari mumkin.

8. Bilimli bo'lish va *istedodni rag'batlantirish*. Talimni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi mavjud layoqat va istedodlarni rivojlantirishda iboratdir. Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar orasidan bilimli, iqtidorli o'quvchilar (talabalarni) ning aniqlash va ularni qo'llab – quvvatlashga alohida etibor berilmoqda. Ushbu maqsad yo'lida faoliyat olib boruvchi qator jamg'armalar, chunonchi, istedodli yoshlarni qo'llab – quvvatlovchi "Umid" va "Ulug'bek" jamg'armalari tashkil etildi. Mazkur jamg'armalarning homiyligida yuzlab talim beruvchi va talabalar etakchi xorijiy mamlakatlarda talim olish huquqiga ega bo'ldilar.

9. Talim tizimida *davlat va jamoat boshqaruvini* uyg'unlashtirish. Samarali talimni tashkil etish jamiyat taraqqiyotini, milliy va xalqning porloq kelajagini taminlaydi. Shu bois, talimni tashkil etish nafaqat davlatning, balki, umumxalq

ishidir. Talim muassasalarida tashkil etilgan ota – onalar qo‘mitasi, o‘quvchilar o‘z – o‘zini boshqarish organlarining kuchi va imkoniyatlaridan, shuningdek, otaliq (xomiy) tashkilotlarning moliyaviy, manaviy qo‘llab – quvvatlashlari evaziga talim samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu printsiplarni mana shu g‘oyani ochib berishga xarakat qiladi.

10. Talim tizimi muayyan jamiyatda ijtimoiy – tarixiy jarayonda tarkib topgan malum talablar asosida boshqariladigan hamda bir – biri bilan bog‘langan barcha tipdagi o‘quv – tarbiya muassasalarining yig‘indisidan iborat ekanligi. Talim muassasasi yuridik shaxs bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Talim tizimi ijtimoiy – tarixiy xarakterga ega muayyan jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti darajasida hamda siyosati mazmuni bilan bog‘liq holda tarkib topadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil, 29 avgust) qabul qilingan “Talim to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘rsatib o‘tilganidek, respublika talim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ◆ davlat talim standartlariga muvofiq talim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat talim muassasalarini;
- ◆ talim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini taminlash uchun zarur bo‘lgan ilmiy – tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy – pedagogik muassasalarni;
- ◆ talim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalarni va tashkilotlarni.

O‘zbekiston Respublikasining talim tizimi yagona va uzluksiz bo‘lib, mazkur tizim doirasida faoliyat yurutuvchi muassasalar talimni bosqichma – bosqich amalga oshirish uchun xizmat qiladilar.

1.3.2. Talim muassasalarida davlat va jamiyat boshqaruvining psixologik – pedagogik asoslari

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish respublika talim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini taminlash talim muassasalarida faoliyat olib borilayotgan islohatlar muvaffaqiyatini

taminlash talim muassasasida faoliyat olib borayotgan talim beruvchi – tarbiyachi, ishlab chiqarish ustlarining manaviy qiyofasi ham kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining manaviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat azolari o‘rtasida yuksak hurmat – ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar, donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini taminlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham talim beruvchi kadrlar manaviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqdi. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respubikasi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) so‘zlagan nutqida bildirilgan fikrlarga diqqatini qaratish maqsadga muvofiqdir: “Tarbiyachining o‘zi zamonaviy bilim berish, ularning malumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. talim beruvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak. ... maktablardagi jarayonlarda talim beruvchi hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Printsip ham tayyor: “Mening aytganim aytgan, deganim degan”. Talim beruvchi va o‘quvchi munosabatlariga majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. Talim beruvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz” (I.A.Karimov).

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun talim beruvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. *Zamonaviy talim beruvchi qanday bo‘lishi lozim?*

Talim beruvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik malumotiga metodik tayyorgarligiga, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonunning 5 – moddasi 3-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning talim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bizning nazarimizda *zamonaviy talim beruvchi* qiyofasida quyidagi **fazilatlar** namoyon bo‘la olishi kerak:

1. Talim beruvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu bora o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli malumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy talim beruvchi ilm – fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. Talim beruvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. Talim beruvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, talim – tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. Talim beruvchi talim – tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olishi imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor.

6. Talim beruvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.

7. Talim beruvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika nutq, yuz, qo‘l – oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. Talim beruvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

- nutqning ravonligi;
- nutqning aniqligi va mantiqiyligi;
- nutqning ifodaviyligi;

- nutqning sofliigi uning turli sheva soʻzlaridan holi boʻlib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi: jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos soʻzlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda oʻziga millatlarga xos soʻzlarning oʻrinsiz qoʻllanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, soʻkishda qoʻllaniladigan soʻzlar) hamda kontselyarizm (oʻrin boʻlmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda soʻzlar) soʻzlaridan holi boʻlishi, talim beruvchi nutqi sodda, ravon va tushunarli boʻlishi kerak;

- nutqning boyligi (soʻzlash jarayonida maqsadga muvofiq tarzda hikmatli soʻzlar maqollar hamda koʻchirma gaplardan foydalana olish).

9. Talim beruvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda, bejirim kiyinish; talim – tarbiya jarayonida talim beruvchining turli xil diqqatni tez jalb etuvchi bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni oʻzlashtirishga erishish) ega boʻlishi lozim.

10. Talim beruvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga oʻrnak boʻla olishi lozim. Talim beruvchi shaxsining mazkur talablarni oʻzida aks ettira olgan qiyofasi uning oʻquvchilar, hamkasblar hamda ota–onalar oʻrtasida obroʻ–etibor qozonishini taminlaydi.

1-bob buyicha xulosalar:

Shunday qilib, «TA'LIM TIZIMIDAGI «O'ZBEK MODEL»ning TARAQQIYO'I va UNING JAXON TSIVILIZATSIYASIDAGI O'RN» mavzudagi dissertatsiyamizning ushbu bobida kuyidagi masalalar tadqiq qilindi va aniqlandi:

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning mohiyati
- Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari
- Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga tatbiq etishning ahamiyati
- Talim sohasidagi davlat siyosati mazmuni
- Talim muassasalarida davlat va jamiyat boshqaruvining psixologik – pedagogik asoslari.

2-bob: HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANI va UNING AHAMIYATI

2.1. Psixologiya tarixiga yangicha yondashuv

Qadimgi dunyoning keyingi rivojlanishi pallalarida psixologik g'oyalar mukamallashib, unga oid tayanch tushunchalar vujudga kela boshladi, hatto ruh hozirgi zamon psixikasi kabi qo'llanish ko'lami kengaydi.

Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari *ong* tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, rumolik shifokor **Galen** (eramizdan oldingi II-asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumiyashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari «ong» tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari taraqqiyoti uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan, frantsuz olimi **Rene Dekart** (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligi tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, *refleks* (lotincha «reflexus»-aks ettirish) organizmning tashqi tasirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinish, asab-mushak faoliyatini obektiv tarzda bilish vositasiga aylandi, sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi **Gobbs** (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexani harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini takidhladi. Uning negizida **epifenomenalizm** (yunoncha «epi»-o'ta, «phainomenon»-g'ayritabiiy hodisa) vujudga keldi, yani psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ro'y beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi talimotga aylandi.

Niderlandiyalik olim **Spinoza** (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, yani yaqqol narsa deb tushuntirdi. U *determinizm* (lotincha «determinare»-belgilayman) *printsipining*, yani tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan, psixik hodisalarining abektiv sabablari bilan

belgilanishi haqidagi talimot targ'ibotchisi edi. Nemis mutafakkiri **Leybnits** (1646-1716), ingliz faylasufi **Jon Lokk** (1632-1704), ingliz tadqiqotchisi **Gartli** (1705-1757), frantsuz **Didro** (1713-1784) kabilar g'oyalar assotsiatsiyasi (bog'lanishi) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo'lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim talimotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo'shdilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka), buning natijasida psixika miyaning funktsiyasi ekanligi haqidagi talimot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi **Charlz Bell** va frantsuz **Fransua Majandi** tomonidan yozuvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berildi, uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha psixologiya fanida paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi. Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar tasirida rus olimi **I.M.Sechenovning** (1829-1905) *reflektor nazariyasi* ro'yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Psixologiya fanining eksperimental, empirik, psixoanalitik, bixevioristik, epifenomenalistik, geshtalt, assotsiativ, vyurtsburg, psixogenetik, reduksionizm, soliptsizm, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo'nalishlari tomonidan to'plangan malumotlar hozirgi zamon psixologiyasini vujudga keltirdi. Xuddi shu yo'nalishlarning rang-barang metodikalari, metodlari umumiy psixologiya fanining predmetini va uning tadqiqoti printsiplarini aniqlab berdi.

Psixologiya fani ko'hna tarixga ega bo'lishga qaramay, u juda navqiron fandir, chunki ilmiy psixologiya nemis psixologi **V.Vundt** tomonidan 1879 yilda Leyptsig (Germaniya) universitetida asos solingan birinchi eksperimental laboratoriya ochilishidan boshlanadi. Shuning uchun endigina *refleksiyani* (lotincha «reflexus» o'zining ruhiy holatini tahlil qilish degani) ilmiy jihatdan o'rganishni psixologiya fani predmeti tarkibiga kiritish davri (mavridi) keldi.

Psixologiya fani tabiatshunoslik fanlari va falsafa negizida paydo bo'lgan bo'lib, to hanuzgacha uning na *gumanitar*, na *tabiiy fanlar* qatoriga kiritilishi aniqlangani yo'q, lekin shunga qaramasdan, uni har ikkala yo'nalishdagi sohalar

bo'yicha to'plangan malumotlar, qonuniyatlar birlashuvining mahsuli deb atash mumkin. Ammo psixologiyaning tarkibida ham gumanitar, ham ijtimoiy bilimlar mavjud bo'lishidan qati nazar, u alohida xususiyatga ega bo'lgan mustaqil fandır. Bizningcha, uning mohiyatini yoritish uchun boshqa manbaga murojaat qilish haqiqatga yaqinroq malumot berishi ehtimol. Chunki psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, o'ziga xoslik, alohidalik, yakkahollik tabiati yuzasidan bahs yuritiladi. Psixologiya fanini tahlil qilishda uning qay fan sohasi bilan aloqasini aniqlashdan ko'ra ilmiy va kundalik turmush psixologiyasi o'rtasidagi munosabat to'g'risida mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir. Malumki, har qanday fan negizida odamlarning turmush va amaliy tajribasi muayyan darajada o'z aksini topgan bo'ladi. Masalan, kimyo predmeti moddalarning xususiyatlari, ularning zichligi, og'irligi, o'zaro birikuvi to'g'risidagi kundalik turmush bilimlariga suyanadi, matematika fani sonlar, miqdoriy munosabatlar, geometrik shakllarning xossalari, trigonometrik funktsiyalar haqidagi inson tasavvurlari asosiga quriladi. Lekin psixologiya yuzasidan ana shunday mulohazalar yuritish yoki bildirish mumkin emas, chunki uning zahirida tubdan boshqacha o'ziga xoslik yotadi. Har qaysi shaxs kundalik turmushning o'ziga xos psixologik bilimlarini egallagan bo'lib, o'z saviyasi, salohiyati bilan turlicha kamolot ko'rsatgichiga egadir, hatto turmush tajribasida to'plangan bilimlar ilmiy psixologik bilimlardan ustunroq turishi ham mumkin (qari bilganni-pari bilmas). Chunki, yirik yozuvchilar (shaxslararo munosabat va muomala, muloqot xususiyatlari yuzasidan kuzatuvchanlikka egadirlar), vrachlar, o'qituvchilar, ruhoniylar, savdogarlar uzluksiz ravishda kishilar bilan muomalaga kirishishlari natijasida ularning ichki dunyosi va xulq-atvoriga oid bilimlar bilan yuksak darajada qurollangandirlar. Lekin har qanday insonda ham ozmi yoki ko'pmi psixologik bilimlar mavjuddir, buning dalili sifatida odamlarning bir-birlarini tushunishlari, tasir o'tkazishlari, xulq-atvor oqibatini oldindan bashorat qilish, kishining yakkahol xususiyatlarini hisobga olgan holda unga yordam ko'rsatishni takidlab o'tishning o'zi kifoya.

Shu narsani alohida takidlab o'tish zarurki, kundalik turmush psixologik bilimlari aksariyat hollarda farosatlilik, sezgirlik, topqirlik xususiyati asosida

intuitiv tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Buning asosiy sababi shuki, ko'pincha egallanayotgan bilimlar hayotiy tajribada uchragan voqelikka nisbatan munosabat, amaliy sinovlar negizida vujudga keladi, keyinchalik undagi ayrim dag'allik va nuqsonlar silliqalanadi. Shuning uchun unday psixologik bilimlar mahsus uslublar yordamida qabul qilinadi, ammo mantiqiy tahlil qilinmasdan turib to'g'ridan-to'g'ri muomala tizimiga uzatiladi.

Hayotiy psixologik bilimlarning ilmiy psixologik bilimlardan farqi shundan iboratki, ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar anglashilgan, mantiqiy puxta, oqilonalik xususiyatiga ega bo'ladi. Ilmiy psixologik bilimlar faraz va g'oyalarni ilgari surish daqiqasidan boshlaboq shakllana boradi, ulardan kelib chiqadigan oqibatlarni mantiqan tekshirish bilan yakunlanadi. Bunda ham olg'a surilgan g'oyalar tekshirish jarayonida biron-bir tasdiq yoki inkor manosiga erishsagina ilmiy psixologik bilimlar tizimiga kiritiladi.

2.2. Psixologiyaning predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rni

Inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi bugungi kunda har doimgidan ko'ra dolzarbroq masalaga aylangan.

Shuning uchun psixologiya fani inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni taminlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk **Suqrot** o'z davrida *“O'z-o'zinni bil!”* degan shiorni o'rta tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga *“o'z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil”*, degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Ayni shu muammoni echishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoyat kattadir.

Ananaga aylanib qolgan xodisalardan biri shuki, psixologiya va u o'rganadigan xodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan kimsalar o'rganib kelishgan, zero, psixologik xodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik xodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Psixologiya faninig boshqa fan sohalaridan farqli tomoni shundan iboratki, uning amaliy, tatbiqiy jihatlari mavjud bo'lib, ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida bevosita qatnashadi, muayyan darajada tasir o'tkazadi. *Psixologiya boshqa fanlardan farqli o'laroq* o'z tatbiqiy malumotlari, natijalarining ko'pqirra, ko'pyoqlama ekanligi bilan tubdan ajralib turadi va mutlaqo boshqa sifat ko'rsatkichiga ega. Ayniqsa, bu borada o'zini o'zi boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi, shuning uchun u tabiatni o'rganish ilmidan tafovutlanib, o'zining psixik jarayonlari, funktsiyalari, holatlari, hissiyoti, irodasi, xarakteri, temperamenti kabilarni boshqarishda o'z aksini topadi. Inson o'zini anglay borib, o'z insoniy xislati, xususiyati, sifati, xulqini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda jahon psixologiyasi fani o'zini o'zi boshqarish va takomillashtirish, o'zini o'zi qo'lga olish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi tarbiyalash bo'yicha boy materiallar to'plagan, bu esa o'z navbatida inson munosabati, maqsadi, holati, kechinmalari o'zgarishi va yangidan yaralishi haqida ilmiy-tatbiqiy malumotlar beradi, kunalik turmush psixologiyasi rang-barangligini taminlab turadi. Psixologiya inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko'chirish, takomillashtirish, rivojlanish dinamikasini taminlash, yangi sifat bosqichiga o'tishini qayd qilish imkoniyati borligi bilan o'ta amaliy, tatbiqiy fanga aylangandir.

«*Psixologiya*» (yunoncha psychelogos) so'zini o'zbek tiliga tarjima qilsak, u «jon», «ruh» haqidagi «fan, talimot» degan mano anglatadi. Biroq hozirgi davrda «jon» tushunchasi o'rniga «psixika»-ni qo'llashda davom etmoqdamiz. Lingvistik nuqtai nazardan «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir xil manoni bildiradi. Lekin «*psixika*» tushunchasi bugungi kunda «jon»dan kengroq ko'lamga ega

bo'lib, ham ko'zga ko'rinuvchi, ham ko'zga ko'rinmovchi tomonlarini o'zida aks ettiradi. Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechimalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular o'rtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi.

Psixika to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun dastavval psixik hodisalar mohiyati bilan tanishamiz. Odatda psixik hodisalar deganda ichki, subektiv tajriba faktlarning (voqelikning) namoyon bo'lishi tushuniladi, boshqacha so'z bilan aytganda psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Ichki, subektiv tajribaning o'zi nimanı anglatadi? Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg'ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosini tarkibiy qismlaridir, yani bularning hammasi subektiv psixik hodisalar sanaladi.

Subektiv hodisalarning asosiy xususiyati-ularning bevosita subektga taalluqliligidir. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o'zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo'layotganligini anglab turamiz ham. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi. Obrazli qilib aytganda, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi hamda ularning tomoshabini hisoblanadi.

Yuqorida takidlab o'tilgan subektiv hodisalar xususiyatidan kelib chiqqan holda ayrim psixologlar psixologiya fani subektiv kechinmalarning paydo bo'lishi va ularning kechishi bilan shug'ullanishi zarur, uning asosiy metodi o'zini o'zi kuzatish (shaxsning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini o'zi kuzatishi) bo'lmog'i kerak degan xulosaga keladilar. Lekin psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti bunday cheklanganlik fanni mutlaqo taminlay olmasligini tasdiqladi

Psixikaning turli shakllarda ko‘rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglashilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (yunoncha psyche «jon» somo «tana» manosini anglatadi) hodisalar, inson aql-zakovati va qo‘lining mo‘jizakorligi moddiy va manaviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda (voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo‘ladi, o‘zining xususiyatlarini ajratadi, faqat ular orqaligina psixikani o‘rganish mumkin.

Psixologik voqelik-fakt deganda subektning ichki kechinmalarining tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning obektiv shakllari (xulq-atvor, tana harakati, jarayoni, faoliyat mahsuli, ijtimoiy-madaniy hodisalar) orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o‘rganish tushuniladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, inson ongidan tashqari, unga bog‘liq bo‘lmagan holda hukm suruvchi obektiv borliq, yani atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalarning psixikada aks etishi psixologik voqelik deb ataladi.

Shunday qilib, **psixologiya predmeti** quyidagilarni qamrab oladi:

- ◆ psixologik bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira va hokazo)
- ◆ psixikaning shakllari (faoliyat, xulq, muomala),
- ◆ psixikaning holatlari (kayfiyat, xayolparishonlik kabilar,
- ◆ psixikaning hodisalari,
- ◆ psixikaning xislatlari, fazilatlar, sifat, xossalari,
- ◆ psixikaning qonuniyatlar, va
- ◆ psixikaning mexanizmlari,
- ◆ psixik sharoit, muhit, vaziyat,
- ◆ o‘zaro sababiy bog‘lanishlar,
- ◆ tadqiqot metodlari, vositalari, materiallari, printsiplari va h.

Psixologiya fanlar tizimida tutgan o‘rni. Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mitalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo‘nalishdagi muammolarini malum manoda o‘rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar sohalari bo‘lib, psixologiya fanining ular orasidagi mavqei o‘ziga xos va etakchidir.

1. *Falsafa* va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdagi o'рни va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning asosidan oladi va shu sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy malumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

2. *Sotsiologiya* fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni taminlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurish ishini amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda taminlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar muhim ahamiyatga ega.

3. *Pedagogika* bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi ananaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da etirof etilgan yangicha modeldagi shaxni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarni talim va tarbiya jarayonlariga tadbqiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari etarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining talim olish davrlaridagi rivojlanish tendentsiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy qobiliyatlarga nechog'lik tasir ko'rsatayotganini o'rganish asosida talim-tarbiya ishini tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirilishini taqazo

etadi. Ayniqsa, manaviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi talim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni

4. *Tabiiy fanlar*: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.q. psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obektiv o'rganish uchun malumot beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini etirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etganligi sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan o'z yulida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

5. *Texnika fanlari* bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalaridan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

6. *Iqtisodiyot* bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa bozor munosabatlariga bosqichma bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy hulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi.

Yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritilgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida iqtisodiy islohatlarning obekti hamda subekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik

o'zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini echishi kerak.

Yuqorida takidlab o'tilgan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Bu tibbiyot, qishloq xo'jaligi, kimyo va oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati, huquq va madaniyatshunoslik kabi ko'plab fan sohalaridir.

2.3. Shaxs va uning faolligi, faoliyat turlari

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatni muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat bu uning faolligidir. *Faollik* (lotincha actus – xarakat, activus- faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning xayotidagi barcha xarakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Fanda inson faolligining asosan **ikki turi** farqlanadi:

Tashqi faollik – bu tashqaridan va o'z ichki istak-hohishlarimiz tasirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

Ichki faollik – bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, yani aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga tasir ko'rsatuvchi omillarni hz ichiga oladi.

Shaxs o'zining faolligi bilan hayvonot olamidan farqli o'laroq ajralib turadi, mazkur harakatlantiruvchi kuch (faollik) ilk bolalik yoshidan etiboran ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan insoniyatning tajribasiga va jamiyatning qonun-qoidalarini egallashga yo'naltirilgan bo'ladi. Uzoq davrlar davom etgan maxsus jarayonning tasirida sodda tarzdagi xatti-harakatda faollik ustuvorlik qilganligi tufayli o'zining yuqori bosqichiga o'sib o'tib, yangicha mazmun, mohiyat, shakl va sifat kashf etgan. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, faqat

insoning taalluqliligi orqali u psixologiya fanida **faoliyat** deb nomlangan boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan tafovutlanadi. Uning farqli alomatlari tavsifi yuzasidan maqsadga muvofiq mulohazalar yuritish ayni muddaodir.

Birinchidan, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yuzaga keltirgan tabiiy, biologik va manaviy ehtiyoj bilan shartlanmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizga qurilishi mumkin. Mabodo ehtiyoj motiv (lotincha motiv turtki, harakatga keltiruvchi degan manoni anglatadi) sifatida faoliyatga ichki turtki berib, uni jadallashtirishga, faollashtirishga erishsa, u vaziyatda faoliyatning mazmuni, shakllari ijtimoiy: shart-sharoit, talablar, zaruriyat, tajriba kabilar bilan belgilanadi. Shuni alohida takidlash o'tish joizki, insonni mehnat qilishga undagan motiv moddiy ovqatga nisbatan ehtiyoj vujudga kelishi tufayli tug'ilishi hodisasi muayyan darajada uchrab turadi.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini taminlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy obektiv xossalarini aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berishi joiz.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi yo'q faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalashi lozim. Shuning uchun faoliyat bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos.

Odatda faoliyatga tarif berilganda, birinchi galda anglashilgan maqsad bilan boshqarilishi, so'ngra psixik (ichki) va jismoniy (tashqi) faollikdan iborat ekanligi takidlab o'tiladi. Lekin, ushbu belgilar faoliyat tarifini mukammal tarzda ochib berishga qurbi etadi, degan gap emas, albatta. Entsiklopediya, izohli lug'at va lingvistik so'zliklardagi malumotlar, ilmiy matnlar tahlilining ko'rsatishicha, faoliyat tushunchasi falsafa, fiziologiya, sotsiologiya, psixologiya fanlari predmetidan kelib chiqib, o'zaro qorishish oqibatida mehnat, ish, aktivlik, xulq singari to'rt xil tavsifga ega bo'lgan.

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. qilinayotgan har bir harakat malum narsaga – predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli xarakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini hzgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, maruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida hzgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi.

Borliqdagi qariyb barcha narsalar, munosabatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar, tuzilmalar bir-biri bilan doimiy bog'liqlikka ega bo'lib, muayyan qonuniyat asosida harakatlanadi, bu holatdan ikkinchisiga o'tadi. Shuning uchun idishdagi suv qaynatilsa bug'ga aylanadi, harorat pasaysa, u muzlaydi, havo isiganida esa muz eriy boshlaydi, bahor ketidan yoz keladi, narsalar ishqalansa qiziydi va hokazo. Xuddi shu bois obekt bilan hodisa o'rtasidagi o'zgarmas, barqaror munosabatlar, obektning muhim xususiyatlari hodisaning qonuniyati deyiladi. Ularda o'zgarmas xususiyatlar va qonuniyatlarning mavjudligi o'zgarishlarni oldindan payqash, harakatlarni muvofiq yo'naltirish imkonini vujudga keltiradi. Tashqi, yaqqol faoliyat favquloddagi davrda ichki timsoliy (psixik) faoliyat tarzida his etiladi. Obektlarga yo'naltirilgan yaqqol harakatlar ularning muhim xususiyatlariga mo'ljallangan timsoliy jarayon bilan almashtiriladi. Xuddi shu sababdan tashqi, yaqqol harakatdan, ichki, timsoliy harakatga mana shu tarzda o'tish jarayoni interiorizatsiya (ichki tarzga aylanish) deb ataladi. *Interiorizatsiya* muammosi rus olimlari **L.S.Vigotskiy**, **A.N.Leontev**, **P.Ya.Galperin** va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiqot qilingan. Interiorizatsiya sharofati bilan inson psixikasi muayyan vaqt oraliq'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi)dan foydalanish qurbiga ega bo'ldi. Shu narsa malumki, bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib so'z, o'zgarish vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlarini axborotidan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir.

Inson faoliyati murakkab va o'ziga xos jarayon bo'lib, shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas, balki ko'pincha jamiyatning maqsadi va talablari bilan belgilanadi. Xuddi shu boisdan qo'yilgan maqsadning anglanilganligi va unga erishish bo'yicha ish harakatlari tajribasi anglanilganligi va unga erishish bo'yicha ish harakatlari tajribasi bilan bog'liq ekanligi inson faoliyatining o'ziga xos belgisi bo'lishini tasdiqlaydi.

Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga tasir ko'rsatishga mo'ljallangan sai-harakatlar ichki (psixik) jihatiga bog'liq bo'lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek, tashqi jabha o'z navbatida: a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ularni uzluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi, yaqqol faoliyatni ham ichki (psixik) faoliyatning *eksteriozatsiyalashuvi* (tashqi tarzga aylanishi) deb baholash maqsadga muvofiq.

2.3.1. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xalq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada *motiv* va *motivatsiya* tushunchalari ishlatiladi.

Motiv va *motivatsiya* muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va kontseptsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashdi.

*Bixeviorizm*ing asoschisi **Dj.Uotson** (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, yani ichki va tashqiga ajratadi, ular o'zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog'liq ekanligini takidlab o'tadi. Bixeviorizm

uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o'tilgandir. Shunga qaramasdan, bazi bixevioristlar, jumladan, **E.Torndayk**, **E.Tolmen**, **K.Xall**, **D.Xebb** kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada etibor qilganlar. Ular o'zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining «quyi darajalari»ni o'rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to'g'risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. *Neobixevioristik* nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar, doayvalar paydo bo'lishiga asoslangan bo'lib, ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning takidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'ovchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos.

Psixoanalitik kontseptsiyalar negizida motivatsiya organik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g'oya yotadi. Ularning manbai maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi.

Z.Freydning kontseptsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o'rtasida hech qanday tafovut yo'qdir. Ongsizlik talimotining asoschisi **Z.Freyd** xulq motivlari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotir, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individning saqlanish shartidir deb taqidlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiya sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, **Z.Freyd** motivatsiya regulatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «U» tushunchasiga qanday mano yuklamoqchi. Uningcha, «U» tushunchasining mazmuni tug'ma va o'zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko'rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Motiv keng manoda xulq-atvor determinatsiyasi belgilanishiga qaramay, ko'pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor manoda talqin qilib, uni ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki ular shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni motiv tizimiga kiritmaydilar. Bir qator

psixologlar motivni energetik, manoviy va manaviy tomonlarini o'zaro solishtiradilar, ular motivni sof manodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilib, uning manoviy va manaviy jabhalarini hisobga olmay turib, o'ziga xos ravishda tushuntirishga intiladilar.

Sobiq sovet psixologlari motivlarni tushuntirishda va uning tarkibiy qismlarini belgilashda dinamik va manoviy (manaviy) tomonlarining uyg'unligidan kelib chiqqan holda talqin qiladilar.

S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: *motivatsiya* – bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; *motiv* – bu shaxs xulq - atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi subektiv tarzda aks etish demakdir. Bizningcha, shaxs o'zining motivlari yordamida borliq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Insonning xulq-atvori (xulqi)ni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi motivlar shaxsning tuzilishida (tarkibida) etakchi o'rin egallaydi. Motivning tuzilish (strukturaviy) tarkibiga shaxsning yo'nalishi, uning xarakteri, emotsional holati (his-tuyg'usi), qobiliyati, ichki kechinmalari, faoliyati va bilish jarayonlari kiradi. Psixologiya fanida to'plangan nazariy malumotlarning ko'rsatishicha, shuningdek, bir qator psixologlarning fikricha, xarakter shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashkil qiladi, degan talimot mavjud. Jumladan, xarakterning u yoki bu sifatlari sof dinamik xususiyatli tavsiflarni tashkil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik tabiatinigina emas, balki uning manaviy va manoviy jabhalarini ham yuzaga keltiradi.

Shuni ham takidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi malumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o'zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga tasir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarni shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik

holatlardan uzoqlashib boradi, soʻngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarni oʻzgartiradi.

Ushbu mulohazani alohida takidlab oʻtish joizki, motivatsiyaning faoliyat darajasidan tashqari chiqishi ehtimoli yoki faoliyatning motivatsiya doirasidan tashqari chiqishi imkoniyati toʻgʻrisidagi talqinlar nisbiy xususiyatga ega. Binobarin, motivatsiya faoliyatdan tashqarida va faoliyat esa motivatsiyadan alohidalikka ega degan xulosaga kelmaslik maqsadga muvofiq. Bu holatni yaqqolroq namoyish qilish niyatida quyidagi hayotiy haqiqatga murojaat qilamiz. Har bir talaba oliy maktabga oʻqishga kirayotganida unda diplom olish motivi paydo boʻladi, oʻqishga joylashganda esa oʻquv predmetlarini oʻzlashtirish jarayoni oʻqishga nisbatan intilish, ehtiyoj, qiziqish, safarbarlik kabi psixik omillar yuzaga keladi.

2.3.2. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida

Psixologik nuqtai nazardan borliq toʻgʻrisida mulohaza yuritilganda, tirik mavjudodlarning (oddiy tuzilishga ega boʻlganidan tortib, to murakkabigacha) tevarak-atrof bilan hayotiy ahamiyatga ega boʻlgan, turli xususiyatli bogʻlanishlarni taminlab turuvchi faoliyati (qaysi darajasi, shakli ekanligidan qati nazar) ularning barchasi uchun umumiy boʻlgan xususiyat hisoblanadi. Ularning faolligi tufayli murakkab tuzilishli faoliyat yuzaga kelib (onglikning mahsuli sifatida), turli-tuman mohiyatli, har xil koʻrinishdagi ehtiyojlar (ularning toifalarga aloqadorligi, kelib chiqishi jihatidan biologik, moddiy, manaviy va boshqalar)ni qondirish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu boisdan faollik faoliyatining asosiy mexanizmlaridan birinchi boʻlib, tirik mavjudodlarning oʻz imkoniyati darajasida tashqi olam tasirlariga javob qilish uquvchanligining tarkibi sanaladi.

Borliqdagi jonli mavjudodlarning oʻziga xos tarzda, muayyan yoʻnalishda, malum darajadagi kuch bilan xatti-harakatni amalga oshirishga undovchi ehtiyojlar ular uchun faollik manbai vazifasini bajaradi. Psixologik manbalarga asoslanib fikr yuritganimizda, ehtiyoj-jonli mavjudod (hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlariga uning shularga tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tariqasida ifodalanadi.

Insonning faolligi boshqa mavjudodlardan tub darajada ham mohiyat, ham shakl jihatdan tafovutga ega bo'lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o'z ifodasini topadi. Jumladan, mavjudodlar va hayvonlar o'zlarining tanasi va uning azolari tuzilishiga, instinktlarning turli-tumanligiga binoan, o'z o'ljasini tutib olishga nisbatan intilishni vujudga keltiruvchi tabiiy imkoniyati uni oldindan payqash sezgirligi orqali zudlik bilan faol harakat qiladi. Hayvonlar ehtiyojlarining qondirilishi jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq ravishda kechgan bo'lsa, bu esa o'z navbatida, ularning qurshab olgan yashash muhitiga engillik bilan moslashuvini taminlaydi. Masalan, asalari xatti-harakatining tug'ma, irsiy dasturi uning gulshira (nektar) yig'ish ehtiyojlari bilan cheklanib qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish obektlari (gullarning navlari, ularning uzoq va yaqinligi, qaysi tomonda joylashganligi, mo'l-ko'lligi kabilar ham) aks etadi. Shu boisdan mavjudodlarning ehtiyojlarida ularning faolligi omili sifatida tabiiy alomatlar, instinktlar, shartsiz reflekslar va hokazolar bevosita qatnashadi.

Lekin insonlarning faolligi va ularning faolligi manbai hisoblanmish insoniy ehtiyojlar tubdan boshqacha manzaraga ega bo'lib, biologik shartlanganlikdan tashqari, moddiy va manaviy ko'rinishlardan iboratdir. Odamning ehtiyoji unga talim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, yani insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma malaka, odat, manaviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tabiat tomonidan vujudga keltirilgan jism, narsa, buyum inson uchun biologik ehtiyojni qondiruvchi o'lja manosini va ahamiyatini yo'qotadi. Odam boshqa mavjudodlardan farqli o'laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruriyat talabiga binoan tubdan qayta o'zgartirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Xuddi shu boisdan odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, malum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

«Insoniyatga xos bo'lgan ehtiyojlarning mazmuni, shakli va qondirilishi» usuli ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida rivojlanib, o'zgarib va takomillashib boradi. Hozirgi zamon kishisining ehtiyojlari va ularning qondirilishi ajdodlarnikidan ham, avlodlarnikidan ham tubdan farqlanadi, lekin etnopsixologik xususiyatlar tasiri o'z ahamiyatini etarli darajada yo'qotmaydi. Shaxsning ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish uni komil inson sifatida kamol toptirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblansa-da, lekin bu uning ustuvor ekanligini bildirmaydi, chunki boshqa tasirchan omillar ham mavjuddir. Kamolotga erishishning muhim shart-sharoiti hisoblanmish mehnat insonning ehtiyojiga aylanmasa, u o'z ehtiyojlarining engil, oson yo'llar bilan qondirishga harakat qilsa, inqirozga uchraydi. Engil yo'l bilan o'z ehtiyojlarini qondirish ijtimoiy qonun va qoidalarga zid xulq-atvor manbaiga aylanishiga, jinoiy xatti-harakat kelib chiqishiga, tekinko'rlik illatining namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Huquqiy, demokratik jamiyat kishisi shaxsini shakllantirishga nisbatan qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri-unda mehnat qilish ehtiyojini, mehnatdan faxrlanish tuyg'usini va undan lazzatlanish hissini tarkib toptirishdan iboratdir. Mehnatga nisbatan ehtiyojning vujudga kelishi sanoatda va qishloq ho'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, mehnat faoliyati umumdorligini oshirish, ish vaqtidan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi va faqat mehnatdagina o'z imkoniyatini namoyon etuvchi, bunyodkor, vatanparvar, fidoiy shaxslarni shakllantiradi. Kishilarning iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi, bazan og'ir va zerikarli tuyulgan mehnat turi vatanparvar, komil insonlikka intiluvchi shaxs uchun quvonch, qoniqish, hatto rohat-farog'at his-tuyg'ularining manbaiga aylanishi mumkin.

Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan «**Talim to'g'risida**»gi **Qonunda** va «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**»da o'quvchilar va talabalarning mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishiga alohida ahamiyat berilgandir. Respublika fuqarolarida manaviy ehtiyojlarni vujudga keltirish va shakllantirish istiqloq sharofati bilan muhim ahamiyat kasb etib, ijtimoiy tarbiyaning muhim bo'g'iniga aylandi. Huquqiy, demokratik jamiyatning asosiy vazifalaridan biri -

insoniy ehtiyojlarni tarkib toptirish, ularni barkamol shaxs kamolotiga yo'naltirish, manaviyatni egallash bilan uzviy bog'lab amalga oshirishdan iboratdir.

2.3.3. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari

Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) muammosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi **D.N.Uznadze** va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgandir.

Ustanovka inglizcha *set* deyiladi, o'zbek tilida esa *ko'rsatma berish*, anglanilmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish manosi qo'llanilib kelinadi. Lekin keyingi atamalar uning haqiqiy mohiyatini, manosini o'zida mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun terminni hech o'zgarishsiz qoldirsa ham bo'ladi.

Odatda ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni malum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyor turishlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab etmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan malum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi va uning qonuniyatlari eksperimental tarzda takidlab o'tilgan ilmiy maktab namoyandalari tomonidan aniqlangan. Mazkur tajribada sinaluvchiga ikkita, bittasi katta, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani uzluksiz ravishda bir nechta (10-15) marta ko'zi yumuq holda paypaslab taqqoslash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soqqachalar almashtirilib, baravar jismlar har xil tuyuladi, yani sinaluvchida illyuziya (noto'g'ri aks ettirish) holati yuzaga keladi. Bunday psixologik voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, obektiv jihatdan o'zaro teng soqqachalar taqqoslanganligida ular bir biriga teng emas, degan mayl bilan favqulodda subektiv sharoitda ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntirilganda, taqqoslash jarayoni ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday oqibatga olib kelgandir.

D.N.Uznadzening takidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasigina emas, balki uning periferik

qismi faoliyatini ham mahsuli bo'lib hisoblanadi. D.N.Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o'ng qo'lga navbat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo'lga bir-biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo'lida ham ilyuziya, yani noto'g'ri idrok qilish vujudga keladi. Ko'z bilan idrok qilishda ikkita o'zaro teng obektlarni qayd qilishdagi ustanovka o'ng ko'zga ham o'z tasirini o'tkazgan. Eksperimental tarzda o'rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insoning o'ziga sezilmagan holda muayyan obektlarda subektga taalluqli «fiksial ustanovkalar» (qayd etilgan ustanovkalar) vujudga kelganligi aniqlangan. Demak, ustanovkani eksperimental tadqiqot etish natijasida anglanilmagan mayllar asta-sekin qayd qilinuvchi (fiksatsion) darajasiga o'sib o'tish mumkin.

Ijtimoiy turmushda D.N.Uznadzening natijalariga o'xshash qator malumotlar shaxsda mustaxkamlanib qolganligi tufayli ustanovka funktsiyalarini bajarib kelmoqda: 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining oldida turgan ustanovkalar xuddi shunday toifaga kirganligi sababli o'qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar; 2) hisobchilarga nisbatan qo'rs, rasmiyatchi deyishlik; 3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik; 4) savdo xodimlariga nisbatan uddaburonlik, daromat qilishga ustasi faranglik; 5) bolaning haqgo'yligi, sir tutmasligi; 6) qariyaning so'zi tugaguncha - o'salning joni uzilishi to'g'risidagi fikr mulohazalar ustanovkaga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, bazi jamoalarda, guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish, ularga ishonch noxush oqibatlarga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misoldir. Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi irqchilik munosabatlari, ilmiy unvonli ziyolilarga berilgan super (orttirma) baholar va boshqalar ustanovkaning anglanilmagan shaklini o'zida mujassamlashtiradi. Shuni takidlash joizki, bazi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda etiqot sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Psixoz va nevrozlar ustanovkaning patologik o'zgarishlarida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, ustanovka inson hukmronligini va qudratini

tashkillatirishning yuksak darajasi sanaladi. U xulq-atvorining batartibligi va izchilligining asosi hisoblanadi.

Ustanovkaning yuksakroq bosqichi anglanish ko'rinishga ega bo'ladi. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning azolarini ishontirish (ularga tasir o'tkazish) orqali muayyan yo'nalishga safarbar qilish; fikrlarda umumiylikni vujudga keltirish holatlari bunga yorqin misoldir ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, xulq-atvoriga bevosita bog'liq. Bu holat psixologiyada eksperimental tarzda tadqiq etilgan. Masalan, sinaluvchilarga malum vaqt oralig'ida soatiga qaramay, sekundlarini o'z ichida sanash orqali bir minutning cho'zilishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshirilib turilgan, bazan «yolg'on» signallar, yani lampochka yonish bilan tajriba bo'linishga yo'l qo'yilgan. Qatnashchilarda eksperimentatorga ishonch bo'lganligi sababli xatolarga yo'l qo'yishgan.

Ishonuvchanlikni aniqlashda «*konformizm*» (kelishuv, murosas, madora) dan foydalanilgan. Ichki va tashqi kelishuvchanlik (konformizm), ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchanlik mohiyatini o'rganish uchun obekt sifatida foydalanishgan. Bir guruh odamlarning ochiq ovoz berish konformizmning namoyon bo'lishidir. Lekin konformizm «soxtalik»ni ham keltirib chiqarish mumkin, uning aks ettiruvchisi esa konformist deb ataladi, ko'pincha ideallardan voz kechish hollari ham uchrab turadi.

Xulq-atvor va faoliyatning anglanilmagan omillari qatoriga mayllar kiradi. Hali differentsiyalashmagan, etarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan tashkil topgan xulq-atvor va faoliyatini amalga oshirishga undovchi omil mayl deb ataladi. Moyillik holatiga kirib borayotgan shaxs uchun jalb qilayotgan obektida uni nima qiziqtirayotgani va qaysi alomat o'ziga tortayotgani sababi noaniqligi. Faoliyat maqsadi subektiga nomalumligi tufayli mayl hukm suradi. Bunday psixik holat insonlarda tez-tez uchrab tursa-da, lekin o'zining tezkor o'tkinchligi bilan boshqa voqealardan ajralib turadi. Odatda ushbu mohiyatli psixik holatni harakatlantiruvchi ehtiyoj so'nishi yoki tilakka aylantirish mumkin. Binobarin, u xohish, niyat, orzu, fantaziya kabi shakllarga aylantirish tufayli shaxs tomonidan

anglaniladi. Bunday shakldagi mayllarning odamlarda mavjud bo'lishi ularning yaqin va uzoq kelajakka intilishlardan dalolat beradi.

Shuni takidlab o'tish o'rinlik, har qanday anglanilmagan mayllar o'zidan o'zi yo'qolib ketmaydi, balki ular bir bosqichdan, ko'rinishdan ikkinchi turga, shakllarga almashadi, mutlaqo boshqacha yangi sifatga ega bo'ladi. Ular maqsadga, talabga o'sib o'tishi bilan anglanilganlik darajasiga erishadi. Ko'ngil g'ashlik, ruhan bezovtalanish, nomalum xatti-harakatlar sababi insonga nomalum bo'lsa, ular anglanilmagan darajada ekanligini bildiradi va mayl funktsiyasini bajaradi.

2 -bob buyicha xulosalar:

Shunday qilib, «HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIIYA FANI va UNING AHAMIYATI» mavzudagi dissertatsiyamizning ushbu bobida kuyidagi masalalar tadqiq qilindi va aniqlandi:

- ◆ Psixologiya tarixiga yangicha yondashuv
- ◆ Psixologiyaning predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rni
- ◆ Shaxs va uning faolligi, faoliyat turlari
- ◆ Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi
- ◆ Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida
- ◆ Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari.

3-bob: «MILLIY DASTUR»da QUYILGAN VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGİYA FANINING O'RNİ va AHAMIYATINI OCHIB BERISHGA QARATILGAN TAJRİBA-SİNOV İSHLARI va UNING NATIJALARI

«Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fani o'rni va ahamiyatining *nazariy asoslari* qanchalik dolzarb bo'lsalar, uning *amaliy va tajriba – sinov asoslari* ham shunchalik dolzarbdir. Uning **dolzarbligi** qo'yidagi yunalishlarda ko'zga tashlanadi:

- ◆ Bu soxadagi maxsus tajriba–sinov ishlarining deyarli o'tkazilmaganligi;
- ◆ Tajriba-sinov sohasining psixologik fanlar orasida «Muallak qolgan» - «Hammaniki va hech kimniki bo'lmagan» yunalish sifatida doimiy chetlab o'tilib kelinishi;
- ◆ Boshqa sohalarda o'tkazilgan tajriba – sinov ishlarining ushbu sohaga tegishli, unga askotadigan jixatlarining tarqoqligi va ularning yaxlit tizimlashtirilmaganligidir va h.

Shunday bulsada, boshqa sohalarda o'tkazilgan va ushbu mavzu tajriba–sinov ishlari uchun bo'lgan ayrim tadqiqotlar o'tkazilganligin ham qayd qilib utish mumkin bo'ladi. Ushbu tadqiqotlar tahlili natijasida talaba yoshlar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining kuyidagi turlarini qayd etish mumkin:

- ◆ Kuzatish - sinov ishlari. Qiyosiy xarakterdagi doimiy kuzatish ishlari;
- ◆ Test-sinov ishlari;
- ◆ Nazorat va diagnostik sinov ishlari;
- ◆ Anketa - so'roq ishlari;
- ◆ Psixologik sinov ishlari va h.

Bu tajriba - sinov ishlarining aksariyati bevosita talim–tarbiya jarayonida o'tkazilgan bo'lib, ular asosan shu yunalishdagi ishlarini yanada samarali tashkil etishga qaratilgandir.

3.1. Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari

Malumki, keyingi yillar ichida talimni isloh qilishda, milliy mustaqillik printsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi asosida talimning barcha darajalari va boʻgʻinlarida talim oluvchilarning manaviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; talim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni manaviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning **maqsadi**:

- ◆ yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;
- ◆ ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek, talim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish;
- ◆ intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
- ◆ yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Beliglangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi **asosiy vazifalarni** belgilab olamiz:

- ◆ Iqtidorli oʻquvchi-yoshlarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy–uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash;
- ◆ Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini oʻrganish;
- ◆ Yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini oʻrganish;
- ◆ Yoshlarning manaviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish;

- ◆ Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish;
- ◆ yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;
- ◆ fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- ◆ talim menejmenti sohasida innovatsion takliflarni o'rganish va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning uchinchi bosqichiga muvofiq ularni talim tizimiga tadbiq etish;
- ◆ bo'lajak rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish va ko'maklashuvchi yuridik malakani (xorijiy) o'rganish va meriy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, talabalarning oliy talim muassasalaridagi tahsili davomida intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi.

Har bir talabaga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida talim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir. Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo'llash, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda – jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Yani har bir talabaga individual yondoshish kerak.

Talabalarga yo'naltirilgan tarbiya tizimi o'qituvchidan yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda tarbiya uslubiyotlariga alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to'liq o'rganishni, jarayonga ijodiy muhitni olib kirishni taqozo etadi. Bunga **asosiy sabab**:

- ◆ intellektual ijodiy ishlar jarayonida to'liq muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlik tahdidining mavjudligi;
- ◆ talaba to'qnashadigan va bazan ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri – bu fikrining o'ylaganidek ro'yobga chiqmasligini anglash;
- ◆ talabalar ko'pincha o'zining dunyoqarashi, tasavvurining qanday darajada kengligidan kelib chiqib fikrlaydi hamda bu fikrlashni mavjudlikning ijobiy, yoki salbiy holatlari bilan bog'lab tahlil qila olmasligidir.

Talabaning ijodiy intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda *quyidagi holatlar etiborga olinishi kerak*:

- ◆ Intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni maksimal darajada texnokratik bo'lishi kerak. Buning uchun esa *psixologik hamda pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kerak*;
- ◆ Intellektual salohiyatni shakllantirishni talim-tarbiya jarayoniga singdirilishi ko'zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim;
- ◆ Intellektual salohiyatni shakllantiruvchi tarbiya jarayonining dastlabki holatda ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kerak.

Talaba shaxsining shakllanish jarayoniga – jamiyatda qabul qilingan axloq va hulq normalari, manaviy-marifiy qadriyatlarni singdirish texnologiyalarini yaratish ko'pgina jihatdan yakuniy natijani taminlashga xizmat qiladi. Shu o'rinda shaxsning ijtimoiylashuviga ham etiborni qaratsak:

- ◆ Boshlang'ich *jamoalashuv* yoki *moslashuv bosqichi*. Bunda talaba tomonidan ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi, moslashtiriladi va qabul qilinadi;
- ◆ *Individuallashuv bosqichi*. Bunda talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashlari va mustaqil fikrlarini ruyobga chiqarishda o'zining mustaqil fikrini bildirish istagi, jamoat xulq normalariga nisbatan ijobiy hamda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi;

- ◆ *Integratsion bosqich.* Talaba jamiyatda o'zi o'rnini topish, jamiyat hayotiga kirishish, atrofdagilarga ijobiy tomondan tanilish, faoliyatda o'zini ijobiy tarfdan ko'rsatish harakatiga tushadi, yani shaxs sifatida o'zini tanitish istagi birinchi o'ringa chiqadi.

Shu o'rinda takidlash lozimki, agar shaxsning ijodiy izlanishi, intellektual salohiyatini ko'tarish harakatlari biror ijtimoiy guruh yoki jamiyat tomonidan qabul qilinsa, integratsion bosqich muvaffaqiyatli o'tadi. Mabodo buning aksi bo'lsa, quyidagi holatlar kelib chiqadi:

- ◆ talabada norozichilik kayfiyati paydo bo'lib, tushkunlik holatiga tushadi;
- ◆ o'zi harakatlarini tahlil qilib, o'zini o'zgartirishga harakat qiladi;
- ◆ talaba o'zida tashkilotchilik, etakchilik, o'zini ko'rsatish kabi hislatlarni jilovlab, mavjud muhitga moslashish harakatiga tushadi.
- ◆ *Ijtimoiy faoliyat bosqichi.* Bu bosqich inson balog'atga etgan davrdan boshlab, hayotining oxirigacha davom etadi. Shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni, yani o'zining intellektual salohiyatini tashqi va ichki omillar tasirida shakllantirib boradi. Bunda mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega.

Yuqorida intellektual salohiyatni shakllantirish jarayoniga bevosita tasir ko'rsatuvchi barcha omillarni qarab chiqdik. Tabiiyki, intellektual ijodiy salohiyatni shakllantirib uni rivojlantirib borish uchun, talim-tarbiya jarayoniga bunday texnologik yondoshuv o'ziga xos savollarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, *texnologik asosda oliy talim muassasasida talabalarning tarbiyaviy jarayonini qanday tashkil etish kerak?* – degan savol yuzaga kelishi muqarrardir. Bu savolga javob berish uchun **quyidagi ishlarni** amalga oshirish lozim:

- 📖 I-IV kurs talabalarining malumotlar bazasini yaratish. Malumotlar bazasi talaba shaxsiga tegishli barcha malumotlarni qamrab olishi kerak;
- 📖 OTMdagi ijtimoiy muhitning aniq tahlilini amalga oshirish. Aynan muhit qanday darajada ekanligi talaba tarbiyasiga, uning intellektual ijodiy salohiyatining shakllanishiga ijobiy yoki salbiy tasir ko'rsatadi;
- 📖 Muhit tahlili quyidagi ko'rinishda amalga oshirilishi **kerak**:

- ✿ mavjud ijtimoiy muhitning asl holatini, intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi harakatlarini aniqlash;
- ✿ professor-o'qituvchilarning ijtimoiy muhitga munosabatini aniqlash;
- ✿ talabalarning ijtimoiy muhitga, OTM rahbariyati olib borayotgan faoliyatga munosabatini aniqlash;
- ✿ talabalar orasidagi ijtimoiy fikrni aniqlash;
- ✿ yuzaga kelayotgan va echimini kutayotgan muammolarni aniqlash.

📖 Talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini oshiruvchi aniq reja va dasturini ishlab chiqish. Muhit tahlili asosida mazkur reja va dasturda 1-navbatda bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb ishlarni belgilab olish kerak. Bunda quyidagilar aniq ko'rsatilishi lozim:

- ◆ fakultetlar amalga oshiradigan ijodiy va tarbiyaviy ishlar;
- ◆ talabalar uyida amalga oshiriladigan intellektual musobaqa va ijodiy ishlar;
- ◆ jamoat tashkilotlari, turli jamg'armalar va homiy tashkilotlar bilan amalga oshiriladigan ishlar;
- ◆ OTM, fakultetlar, kafedralar miqyosidagi tadbirlar;
- ◆ talabalar o'zini-o'zi boshqaruvi amalga oshiradigan ishlar;
- ◆ talabalarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish ishlari;
- ◆ salbiy oqimlar, zararli g'oyalarga qarshi kurash muhitni shakllantirish.


📖 Talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonining monitoringini yaratish. Amalga oshiriladigan barcha ishlarning yagona monitoringini shakllantirish orqali, jarayonni bevosita kuzatish imkoni yuzaga keladi. Bundan tashqari jarayonning borishini tahlil qilish mumkin.

📖 Jarayonga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish dasturi. Monitoring natijasida jarayonga tegishli ishlarning qanday darajada bajarilishidan kelib chiqib, joriy o'zgartirishlarni amalga oshirish kerak. Shu maqsadda qo'shimcha o'zgartirishlar dasturini ishlab chiqish mumkin. Bu dastur korreksion ahamiyatga ega bo'lib, jarayon samaradorligi va ish sifatini yanada ko'tarishga qaratiladi.

3.2. Intellektual-ijodiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari

Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam tasir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi etibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana shu psixologik jihatlarni etiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratiladi. Yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish manbalarini quyidagi *1-shaklda* ifodalab beramiz:

(1-shakl)



Talim-tarbiya berish jarayonida talimning malum bir maqsadga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Talim jarayoni yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo'lmaydi. Talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

- ◆ O'quvchi-talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi hislatlarini uyg'otish va rivojlantirish rejalashtiriladi;
- ◆ Mana shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual ijodiy salohiyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi;
- ◆ Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Mana shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish talim-tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini oshirib boradi (*2-shakl*).

Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlari				
Ko'p qirrali jarayon	Uzoq muddat davom etadigan jarayon	Yaxlit holda amalga oshiriladi	Yoshlarning faolligi, ikki tomonlama xususiyat	Qarama-qarshiliklarning ko'pligi
Ko'p qirrali jarayonda o'quv maskani, oila, mahalla va keng jamoatchilik, kino,televidenie teatr, adabiyot va sanat ishtirok etadi.	Bu jarayonga bolaning tug'ma istedodi kiradi. Bu xususiyatda talimdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab davrida, undan keyin, va butun	Intellektual ijodiy salohiyatning talimdan farqlantiruvchi xususiyati yaxlit holda va kontsentrik asosda amalga oshiriladi. Bunda tarbiyaning	Bunga yoshlarning tug'ma istedodi hamda olgan bilimlari asosidagi intellektual ijodiy salohiyati kiradi. Bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, bunda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.	Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan intellektual ijodiy salohiyat bilan talim-tarbiya tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o'rtasida

	umr davom etadi.	turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan.		o'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.
--	------------------	--	--	--

Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quvchi-talabalar ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirlarni belgilab ularni ikki guruhga ajratamiz:

1. «Intellektuallar» guruhi


- ◆ «Zakovat», «Iqtidor», «Imkon» kabi intellektual o'yinlarni o'tkazish;
- ◆ «Eng yaxshi tarixchi, matematik, dasturlovchi, fizik, biolog, filolog va hokazo» nomlarda tanlovlar o'tkazish;
- ◆ ilmiy yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish, ilmiy anjumanlar o'tkazish;
- ◆ «Yosh dasturlovchilar», «Yosh astronomlar», «Yosh ixtirochilar», «Yosh konstruktorlar», «Yosh texniklar», «Yosh radiotexniklar», «Yosh iqtisodchilar» kabi klublarni tuzish.

2. «Ijodkor va istedadli yoshlar» guruhi

- ◆ «Eng yaxshi sher, rasm, foto, kashta, so'zana va hokazo» nomlarda tanlovlar o'tkazish;
- ◆ «Quvnoqlar va Zukkolar» klublari jamoalari bellashuvlarini o'tkazish;
- ◆ «Eng yaxshi hamshira, hisobchi, oshpaz, chilangar, suvchi, hosilot, terimchi va hokazo» nomlarda tanlovlar o'tkazish;
- ◆ «Yosh musavvir», «Yosh musiqashunos», «Yosh kitobxon», «Yosh ijodkor» kabi klublarni tuzish;
- ◆ ijodkor yoshlarning ijodiy kechalari va ko'rgazmalarini tashkil etish;
- ◆ umumxalq bayramlari, Xalqaro va Milliy bayram kunlari munosabati bilan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish.

- ◆ Buyuk mutafakkirlarimizning tavallud kunlariga bag'ishlangan bayram kechalarini sahnaviy ko'rinishlarini uyushtirish;
- ◆ Mustaqil ravishda biror bir mavzuga bag'ishlangan badiiy kompozitsiyalar tayyorlash;
- ◆ Badiiy havaskorlik to'garaklarining ishini jonlantirish va musobaqa tariqasida o'tkazilishini tashkil etish;
- ◆ Ijodiy ishlar majmuasini ommalashtirish;
- ◆ Eng yaxshi ijodkor talaba sovrinini tashkil etish;
- ◆ Yilning eng yaxshi istedodli talabalasi rukni ostida ko'rik-tanlov tashkil etish.

Bundan tashqari yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini muntazam rivojlantirish ishlarini amaliyatga tadbiq etish uchun har bir pedagog har bir darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini kuzatib borishi kerak. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirib borish uchun quyidagi sxemada berilgan (3-shakl) usullardan foydalanishni **tavsiya etamiz: (3-shakl)**



Quyida yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullaridan foydalanish haqida **namunalar keltiramiz**:

- ◆ Aql charhi mashqlarini o'tkazish: bunga turli rebuslar, krossvordlar echish, shaxmat va shashka o'yinlarini musobaqa shaklida tashkil etish kiradi.
- ◆ Yosh qalamkashlar to'garaklarini o'tkazish: bunga yoshlarning ijodiy mahoratini, istedodini oshirib borishga qaratilgan tadbirlari majmuasi kiradi. Masalan, yoshlar orasida etishib chiqayotgan yozuvchi va jurnalistik mahoratga esa bo'lgan yoshlar bilan ishlash.
- ◆ Chaqqonlar va epchillar sport o'yinlarini o'tkazish: bunga barcha turdagi sport musobaqalarini o'tkazish kiradi.
- ◆ Mushoira, g'azalxonlik ko'rik tanlovlarini o'tkazish: bu usulga yoshlarning sher va g'azallar orqali ijod qilishi kiradi. Bunga "Sher kechasi" tadbirlarini o'tkazish kiradi.
- ◆ Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarini o'tkazish: bu tanlov orqali yoshlarning sanat, teatr va rassomchilikka bo'lgan qiziqishi orttiriladi va zukkolik mahorati baholanadi.
- ◆ «Ustoz-shogird» ishlarini takomillashtirish: bu usulni amalga oshirish uchun eng yaxshi ish olib borayotgan shogirdlari undan juda mamnun va minnatdor bo'lgan pedagog-ustozning ishlarini ommalashtiriladi.

Albatta, yoshlarning ijodiy barcha ishlarini va istedodli mahoratlarini baholash, ularni turli sovg'a va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash maqsadga muvofiqdir.

3.3. Yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini o'rganishning tajribadagi natijalari

Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmi va psixologik-pedagogik, tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish bo'yicha quyidagi **testli anketa** savollari tuzildi va ushbu savollar bo'yicha olingan natijalar o'rganib chiqildi:

Savolnoma:

1. Intellektual ijodiy salohiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishga oid qanday o'quv adabiyotlarini bilasiz?
3. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi qanday psixologik omillarni bilasiz?
4. Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun qanday pedagogik usullar mavjud?
5. Salohiyatingizni oshirish uchun kimlar bilan ko'proq muloqotda bo'lasiz?
6. Intellektual ilmiy va ijodiy salohiyatingizni oshirish uchun qanday adabiyotlarni o'qiysiz?
7. Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini oshirish uchun qanday tadbirlarni o'tkazish mumkin?
8. Intellektual ijodiy salohiyatini oshirishda tarbiyaning o'rni qanaqa deb o'ylaysiz?
9. Intellektual salohiyatni ko'tarish uchun siz dinga qanday qaraysiz?
10. Ijodiy va ilmiy ishlarni amalga oshirish borasida nima ishlar olib borayotirsiz?
11. Har bir shaxs intellektual ijodiy salohiyatini oshirish uchun nimalar qilmog'i kerak?
12. Intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy jihatlariga nimalar kiradi?

Ushbu savolnomani tarqatish va kerakli malumotlarni to'plash jarayonida biz **quyidagi xulosalarga** ega bo'ldik:

- ◆ mutaxassislarning fikricha mutaxassislik fanlari bo'yicha intellektual salohiyatni oshirish uchun darsliklardagi manbalar etarli emas;
- ◆ kitob o'qishdan maqsadim olgan bilimimni mustahkamlash deb 80% kishi javob bermoqda, bunda esa yaratilayotgan har bir darslikning sifatiga ahamiyat berilishi lozim;
- ◆ yoshlarning dunyoqarashi bilimi va istedodini o'stirish, kasb mahoratini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar yaratish;

- ◆ yoshlarning bilim va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun adabiyot va badiiy sanat asarlarini namoyish etuvchi tadbirlarni amalga oshirish;
- ◆ chet tillarini o'rganish orqali intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun har bir xalq va millatning madaniyatini o'rgatuvchi risolalar yaratishni yo'lga qo'yish;
- ◆ aqliy qobiliyatni rivojlantiruvchi intellektual ring o'yinlari va aql charxi mashqlari musobaqalarini talim jarayonida va tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda tashkil etish;
- ◆ kasbga yo'naltirilgan intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantiruvchi metodik qo'llanma, tavsiya va o'quv uslubiy risolalar yaratish;
- ◆ kommunikatsion axborot resurslari, internet malumotlari, kundalik matbuot yangiliklari va xabarlaridan foydalanuvchi tadbirlarni muntazam amalga oshirish;
- ◆ talim berish jarayonida debat va demokratik muloqot usullaridan foydalanib mavzuning maqsad va vazifalarini amalga oshirish;
- ◆ yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishni amalga oshirishda turli xildagi tarbiya turlaridan foydalanish, ko'zlangan maqsadni amaliyotga joriy etishda tarbiyaviy usullardan foydalanishni nazarda tutish.


Kasbiy talimda individuallashtirishni taminlash, intellektual-ijodiy salohiyatni rivojlantirish, iqtidorli o'quvchi-yoshlarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy–uslubiy asoslarini yaratish bo'yicha tadqiqotlarni turli yo'nalishda o'tkazish mumkin.

3.3.1. Talim jarayonida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning pedagogik-psixologik asoslarini yaratish

Har bir fan o'qituvchisi talim berish jarayonida talabalarning fanni o'zlashtirish jarayoni bilan qiziqishlari tabiiy hol albatta. Yoshlarning fanni mukammal o'zlashtirishi, qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishi, yanada chuqurroq bilim olishga harakat qilishi har qanday ustozni quvontirishi ham tabiiy holdir. Lekin bu hol har bir guruhdan ikki yoki uch o'quvchi bo'lishi mumkinligi


hech kimga sir emas. Chunki to'laqonli o'z ongi, aql-zakovati, zukkoligi bilan bilim olishga va ijod qilishga qiziquvchi o'quvchi-yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni ishlab chiqish va dars jarayonida unga amal qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, "Kelajagimiz yoshlar qo'lida..". Darhaqiqat, bugungi mashaqqatli mehnatimizning mahsulini kelajak ko'rsatadi. Bugungi kunda iqtidorli, istedadli yoshlarimiz ham kam emas. Faqatgina biz ularni dars jarayonida aniqlab olishimiz va ularni qiziqishlarini inobatga olishimiz, ijodiy salohiyatga erishishi uchun to'g'ri yo'l-yo'riqlarni ko'rsata olishimiz kerak.

Buning uchun har bir talaba-o'quvchining kundalik ish faoliyatini kuzatishimiz va undan psixologik-pedagogik xulosalarni chiqarib har bir o'quvchi bilan individual ish olib borish uchun ularning ish faoliyatining turlarini o'rganib chiqish va har bir talabaning psixologik dunyoqarashi bo'yicha malum xulosalarga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yimog'imiz lozim: (4-shakl)



Yoshlarning umumiy faoliyat turlarini birma-bir o'rganmasdan turib ularning ijodiy salohiyatiga baho bera olmaymiz. Chunki, o'quvchilar o'rganilayotgan fanni "alo" va "yaxshi" o'zlashtirishiga qarab uning istedadini baholashimiz ham noto'g'ri uslubdir. Malumki, bir yo'nalishni chuqur o'zlashtirib tor mutaxassislik doirasida "alo" bo'lib ixtisosligi bo'yicha o'qitilayotgan fanlarni yaxshi o'zlashtira olmasligi mumkin. Buning uchun barcha talim maskanlarida tahsil berayotgan ustozlarimiz o'z shogirdlarining ijodiy salohiyati va mahoratini rivojlantirish

uchun o'quvchining intellektual sifatlarini o'rganishi zarur bo'ladi:
(5-shakl).



Yoshlarning intellektual sifatlarini o'rgangan holda ular bilan muntazam ish olib borish uchun talim jarayonida quyidagi usullardan foydalanishni nazarda tutish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari har bir talim maskanida o'tkaziladigan talimiy tadbirlar, tanlov va musobaqalar ham yoshlarning ilmiy va ijodiy intellektual salohiyatini oshirishga juda katta yordam beradi. Buning uchun har bir ustoz o'zi tanlagan shogirdining mahoratini oshirib borish uchun barcha usullarni qo'llay olishi, o'quv maskani mamuriyati tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlarni o'z vaqtida muntazam o'tkazilishini o'rganib borishi lozim. Ko'rik-tanlov, musobaqa, olimpiadalar o'tkazishdagi demokratik, erkinlik, odilona va oqilona baholash, yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi omillarni ilgari surish barchamizning muhim vazifalarimizdan biri ekanligini unutmasligimiz kerak.


3.3.2. Yoshlarning intellektual sifatlarini aniqlash va rag'batlantirish usullari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ishlab chiqilgan davlat talim standartlarida talimning har bir bosqichida o'quvchilar egallashi mumkin bo'lgan

bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berilgan. Ammo bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida yoshlarning intellektual imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etilsa, yuqori samaradorlik taminlanadi.

Yoshlarning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularning bilim faoliyatning psixologik-pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilishni taqozo etadi (4-5-shakl). Yoshlarni manaviy intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiya jarayoniga samarali o'zgartirishlarni kiritib boradi. O'quvchi-talabalarning manaviy intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarni topish, yutug'ini rag'batlantirish, kamchiliklarni tuzatish ham tarbiya mazmunining usullarini takomillashuviga olib keladi. Bunda tarbiya usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi. Yoshlarga qo'yilayotgan talablar ularni har tomonlama intellektual rivojlantirishning pedagogik sharoitlarini batafsil emasligi orasida tafovut borligini ko'rsatadi. Bu masalaning muhim tomoni shundaki, mutaxassislar ommaviy tusda tayyorlanganda, tarbiyachi o'qituvchilarning har bir talaba bilan individual muloqot qilishga vaqti etmaydi. Bu o'rinda shuni takidlab o'tish joizki, talaba yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini hamda manaviy intellektual salohiyatini aniqlash uchun **test** topshiriqlarini bajartirish usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Yoshlarning manaviy intellektual ijodiy salohiyatini aniqlash uchun **test topshiriqlarining** quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

(6-shakl)



Mana shu test shakllarining **ijodiy test** namunasidan foydalanish uchun avvalambor o'quvchi-talaba yoshlarga *quyidagicha savollarni* muhokama qilib berishimiz lozim:

- ◆ Siz qanday mustaqil ishlarni bajarishni yoqtirasiz?
- ◆ Siz biror bir ijod bilan shug'ullanasizmi?
- ◆ Biror bir ijodiy ishni bajarishinigizga kim yoki nima halaqit bermoqda?
- ◆ Aqlni charxlashning qaysi usullaridan foydalanasiz?
- ◆ “Zakovat” ko'rsatuvining qaysi jihatlari sizga maqul? Bu ko'rsatuv haqidagi fikr va mulohazalaringiz?
- ◆ Siz tahsil olayotgan talim maskanida qanday ijodiy kechalar o'tkaziladi?
- ◆ Sizga kimning ijodiy faoliyati yoqadi?
- ◆ Siz kimning ijodiy faoliyatiga taqlid qilishni yaxshi ko'rasiz?
- ◆ Biror bir yangilik yaratish deganda siz nimalarni tushunasiz?
- ◆ Siz-u, biz yaratayotgan yangilik ertangi kunga qanday xizmat qilishi kerak?
- ◆ Sizni ijod qilishga kimdir undamoqdami yoki o'z qiziqishingiz bilan biror bir ijodiy ishga qo'l urmoqdamisiz?
- ◆ Chet el ijodkorlarining tajribalariga qanday qaraysiz?
- ◆ Biror narsani yaratish, ixtiro qilish deganda nimalarni ko'z oldingizga keltirasiz?
- ◆ Har bir ijodiy faoliyatning jamiyatdagi o'rni qanday?
- ◆ Inson o'zining qobiliyati va mahoratini qanday ishga soladi?

Intellectual salohiyatni oshirish har bir talabaning iqtidoriga bog'liq. Iqtidorli talabalarni aniqlash ularning salohiyatini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishdan oldin, qanday talaba iqtidorli bo'ladi? - degan savol tug'iladi, ushbu savolning javobini barcha barobar o'ylash kerak.

«Iqtidorli talaba» so'zi haqida fikr yuritishdan oldin, «iqtidor» tushunchasiga to'xtalib o'tishimiz lozimdir. Iqtidor – bu insonlarga xos bo'lgan eng buyuk fazilatlardan biridir. Inson iqtidori o'zida barcha insoniy fazilatlarni, qobiliyatlarni, hislatlarni ifodalaydi va mujassamlashtiradi. Ushbu tariflardan kelib chiqqan holda «Iqtidorli talaba» tushunchasini quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

«İqtidorli talaba» deganda, bu aniq maqsad sari intiluvchi, yuksak istedodga ega bo'lgan qobiliyatli, shuningdek, o'zining dunyo qarashiga, madaniy-manaviy fazilatlariga, odobi va ahloqiy hislatlarga ega bo'lgan, ruhan tetik, manan va jismonan barkamol, zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan, o'z qalbida vatanparvarlik hissini jo qilgan, har qanday vaziyatlarda ham o'zining kuchli irodasi bilan faoliyat yurita oladigan yoshlarni tushunamiz. «İstedodli talaba» deganda esa, biz yoshlarga olloh tomonidan berilgan istedodni, qobiliyatni tushunishimiz kerak. İstedod va qobiliyat insonda asosan tug'ma bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bog'cha yoshidan boshlab yoshlardagi bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustida muntazam ishlansa, har bir yoshning intellektual imkoniyatlarini o'stirishga va uni amalga oshirishga hissa qo'shgan bo'lamiz. Yoshlarning tafakkurini rivojlantirishning eng samarali yo'li o'quvchilarda ongli bilim, mustahkam ko'nikma va malakalarni shakllanish jarayonini ularning tarbiyasi bilan birga tashkil etishdir. Bu esa, har bir o'qituvchidan o'z ustida ishlash, ertangi rejani puxta tayyorlashni, tinimsiz izlanishni, o'qitishning yangi texnologiyalaridan foydalanishni: talimiy tadbirlar va tanlovlar tashkil etib dars samaradorligini oshirishni talab qiladi.

3.4. İntellektual va ijodiy sifatlarning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyati

Shaxs - O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelida muhim o'rin tutadi va shaxsning barkamolligi, uni o'z kasbini puxta egallagan mutaxassis sifatida tarbiyalashning samarali yo'llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilishi zarurligiga alohida etibor beriladi. İslohotlarning amalga oshirilayotgan sifat bosqichidagi muhim vazifa ana shu maqsadni samarali texnologiyalar bilan taminlashni, bu esa, avvalo vositalar, uslublarni metodologik taminlashni talab qiladi. Zero, vositasiz maqsad - hech narsani o'zgartirmaydi.

Bunda barkamol-ijodkor shaxsni shakllantirishning metodologiyasi bu kadrlar tayyorlash milliy modeli asosiy tushuncha va tamoyillarini talqin qilish, ularni amaliyotga tadbiq qilish jarayonlarini ilmiy o'rganish, o'zgartirish uslublari majmuasi, degan tarif paydo bo'ladi. Bu bilan metodologiya tushunchasiga xos bo'lib kelgan nazariylik amaliylik bilan bog'lanadi.


«Kadrlar tayyorlash miliy dasturi»ning tadbiqi kishining jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi. Zero, har bir inson o'smirlik, yani voyaga etish arafasidanoq jamiyatda o'z o'rnini topa olishi va belgilay bilishi lozim. Aks holda bu uning hayot yo'llarida sarson, maqsadsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Bu esa yoshlarning o'ziga ishonchini so'ndirishi, ayrim hollarda jamiyatda o'z o'rnini topa olmaslikka, o'z foydasi va jamiyat foydasini taminlay olmasligiga sabab bo'ladi. Demakki, uning shaxs bo'lib shakllanishi gumon bo'lib qoladi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga tadbiq etish bilan ana shunday salbiy oqibatlarining oldi olinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli jamiyatimizning keng potentsial salohiyatidan foydalanishda katta ahamiyatga ega.

«Milliy dastur»ning amalga oshirilishi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Odamlar olomon bo'lib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z xulosasi, o'z mehnati bilan yashay boshlaydi. Eng asosiysi bunday kishilarga chetdan hech qanday nopok kuch, buzuq g'oyalar, quruq shiorlar, chaqiriqlar bilan tasir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarni o'z tanlagan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch adashtira olmaydi. Aynan shu hislatlar, milliy xavfsizlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo'ygan. Bu yo'lda birinchi, lekin juda muhim qadamlar qo'yilgan. «Kadrlar tayyorlash miliy dasturi»ning hayotga tadbiq etilishi xalqaro jamiyatda o'z o'rnimizni mustahkamlashga olib keladi. Negaki dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg'or texnologiyalardadir. Prezident I.A.Karimov tomonidan takidlangan: «Kuch – bilim va tafakkurda» degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

Bu hikmatgi amalga oshirishda dastlab «Barkamol avlod orzusini», yani maqsadni quyidagicha ifodalab oldik: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» – barkamol avlodni tayyorlashning qonuniy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjati. Bunda **birinchidan**, milliy dasturni to'liq bajarishga erishish, **ikinchidan**, butun

xalqni mazkur sababli ishga to'liq jalb qilish, **uchinchidan**, etilgan muammoni hal etishda mazkur ishlarning mazmun mohiyatiga tushishga erishish va **to'rtinchidan**, har bir fuqaroning belgilangan vazifalarining bajarilishiga ishonch hosil qilishga va bu jarayonga munosib hissa qo'shishga ishtirok etish istagini borligiga erishish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da takidlangan «Ijodkorlik va barkamol avlod orzusi»ni amalga oshirish uchun quyidagilarga alohida etibor berish vazifalari belgilab olindi (7-shakl):



To'liq ishonch bilan aytilish mumkinki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amalga oshirilishi, jamiyatda yangi ong, yangi tafakkurga ega bo'lgan, milliy istiqlol g'oyasi negizida shakllangan shaxsning tarbiyalanishi mustaqilligimizni mustahkamlashda asosiy poydevor bo'ladi.

Xo'sh? Milily model asosida shakllangan barkamol shaxs qanday sifatlarga ega bo'ladi?- degan tabiiy savol tug'iladi. Shaxsning malumot darajasiga qaramay, yuksak ko'rsatkichlarga erishuvi uning kamolatidan darak beradi. O'z sohasida kasbiy mahoratini namoyish etish etuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida ilk iz qoldiradi. Ijodkorligi, novatorlik takliflari, ixtirolari sohasidagi muvaffaqiyatini ifodalab, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat

qiladi. Noyob kasb sohibi, o'tkir qobiliyatli, istedodli etuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy – tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi. Shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichi - subektidir. Bu kamolotga erishuv va ijtimoiy – siyosiy etuklikni namoyish qilishdir. Etuk mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy – tarixiy fikrlovchi, siyosatchilar, davlat rahbarlari subekt bosqichida faoliyat ko'rsatadilar. Shuning uchun ushbu vaziyat ommaviyligiga erishish jamiyat taraqqiyotining tezlashtirib, fidoiy, toliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

Har tomonlama etuk shakllangan, komil inson g'oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Milliy model nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o'z sohasi bo'yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida etuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy – tarixiy psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu darajadagi shaxsning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yuksak aql-zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik;
- xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o'z imkoniyatlarini oqilona baholash;
- ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining yuksak boso'ichi bo'lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo'yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egalik bilan xarakterlanadi;
- uzluksiz ravishda yangiliklarga intiluvchanlik, ijodiy echimlarni amalga oshirishga qobillik;
- o'z iqtidori va ijodiy salohiyatini amaliy ifodalanishini taminlash;
- har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish;
- har tomonlama rivojlangan shaxsning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb ataladi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his-

tuyg'ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat qoidalariga rioya qilish, axloqiy etuklik, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy ong ko'rinishlariga oqilona yondoshish.

3 -bob buyicha xulosalar:

Shunday qilib, «MILLIY DASTUR»da QUYILGAN VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIYA FANINING O'RNİ va AHAMIYATINI OCHIB BERISHGA QARATILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI va UNING NATIJALARI mavzudagi dissertatsiyamizning ushbu bobida kuyidagi masalalar tadqiq qilindi va aniqlandi:

- ◆ Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari
- ◆ Intellektual-ijodiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari
- ◆ Yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini o'rganishning tajribadagi natijalari
- ◆ Intellektual va ijodiy sifatlarning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyati
- ◆ Talim jarayonida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning pedagogik-psixologik asoslarini yaratish
- ◆ Yoshlarning intellektual sifatlarini aniqlash va rag'batlantirish usullari.

XULOSALAR va TAVSIYALAR

Shunday kilib, dissertatsiya tadkikot ishimizga xulosalar yashaylik.

Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan bevosita ularning rahbarligida ishlab chiqilgan «Kadrlar tayyorlash milliy modeli» bir qancha noyob, takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlarga ega. U O'zbekistonning xalqaro andozalariga zamonaviy taraqqiyotini taminlay oladigan dadil, mustaqil tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatlari barq urib kamolatga etgan kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» – yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan ijtimoiy ongga kiritilgan, davlatni, jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan tamomila yangi tushunchadir. Talim – tarbiya esa shu keng qamrovli vazifaning tarkibiy bir qismidir. Talim – tarbiya kadrlarning yangi avlodi tafakkurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir sohadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy modeli», shu tariqa, faqat talim – tarbiyadangina iborat emas, balki bir – biriga bog'liq bo'lgan ko'pgina hayot bosqichlarini o'z ichiga oladi. Milliy modelimiz, bu - *shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz talim, fan, ishlab chiqarishning* uzviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi. Davlat va jamiyat uzluksiz talim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslanuvchanligini taminlaydi.

Milliy modelimiz kontseptsiyasining mazmuni milliy turmush tarzimiz va manaviy-axloqiy ananalarimiz bilan hamnafasdir. Chunki bizda qadimdan «marifatli inson» tushunchasi ancha keng manoni anglatadi. Unutmasligimiz kerakki, marifat – xalqimiz, millatimiz qonidadir. Ananaviy Sharqona qarashiga ko'ra, marifatlilik – faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur manaviyat va go'zal ahloq degani hamdir. Xalqimiz salohiyatli, komil inson deganda aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»mizning butun mohiyati milliy tariximiz va hayotimiz bilan bog'lanib ketgan. O'zbekistonda bevosita o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan, takrorlanmas, buyuk tariximiz, ananalarimizga asoslangan va shu bilan birga

hozirgi davr talablariga javob bera oladigan «Kadrlar tayyorlash milliy modeli» yaratildi. Dasturimizning, modelimizning milliyliigi ham aynan shulardan iboratdir.

Yana bir, printsiipial yangi jihat shundan iboratki, ko'pgina boshqa davlatlardan farqli o'laroq, bizning mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning barcha yuki davlatimiz zimmmasidadir. Yani mustaqil rivojlanishimizning ilk yillarida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan o'tish davrining mashhur besh tamoyiliga asosan bu gal ham dasturni amalga oshirishda bosh islohatchi sifatida davlatimizning o'zi katta masuliyatni o'z zimmasiga olayapti.

«Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy modeli»miz o'z ilmiy salohiyati, ahamiyati chuqur falsafiy manoga ega ekanligi bilan xalqaro miqyosda tan olindi va o'z o'rnini topdi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'zlangan maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamlakatimizdagi ijtimoiy – siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib keldi, jamiyatda **yangi shaxs – komil insonlar** vujudga keldi. Ular hayotga tamomila boshqacha nigoh bilan qaraydilar.

O'zbekiston Respublikasi «Talim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» tamonidan talim muassasalari oldiga barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari qo'yilgan. Bu vazifalarni hal etish kup jixatdan pedagogik jarayon mazmuni, o'quvchilarning yosh, bilim imkoniyatlari, pedagoglarning nazariy va uslubiy tayergarlik darajalaridan kelib chiqib hal etiladi. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning *asosiy yunalishlaridan* biri sifatida **iqtidorli bolalar va istedodli yoshlar** muammosi belgilangan.

Barkamol ijodkor yoshlarni tarbiyalash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- ◆ Tarbiya yordamida muhitning salbiy tasiri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin.
- ◆ Tarbiya inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois u shaxs kamolotini taminlashda etakchi rol o'ynaydi.

- ◆ Insonning manaviy o'sishi sodir bo'ladi, muhitni stixiyali tasiri bera olmaydigan sifatlar shakllanadi. Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rab turgan muhitning tasirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni maxsus talim yo'li bilangina o'rganadi. Malum bilim, ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.
- ◆ Tarbiya yordamida hatto kishining bazi tug'ma kamchiliklarini ham ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, bazi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi (kar, ko'r, soqov va hokazo). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'lmagan kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

Biz dissertatsiya ishimizda mazkur asoslarni etiborga olib, ilmiy bilishning **deduktsiya tamoyili** asosida barkamol shaxsni shakllantirishni quyidagicha ifodalab o'tdik. Bunda shaxs tarbiyasini rostlab turish maqsadida muntazam ravishda ilmiy – uslubiy taminotiga etibor berilib borildi va jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlar bo'yicha axborot taminotiga etibor qaratilishi lozimligi aniqlandi.

Shu yo'sindagi olib borilgan talim – tarbiya oxirida barkamol shaxsga qo'yilgan talab bilan (mezon bilan) tarbiyalangan shaxsdagi intellektual salohiyati solishtirilib ko'riladi va mezon bo'yicha talablar bajarilgandan keyin tayyor mutaxassisga «Mehnat bozori»ga yo'llanma beriladi.

Talim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda malum bir maqsad belgilab olinadi, qonunlar qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, talim-tarbiya oldida loyihalash, malum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qargalanda "shaxsni shakllantirish" ham malum pedagogik tizimning loyihasidir. Yani barkamol shaxs tarbiyasining maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, bu ham o'ziga xos texnologiyadir.

Istiqlol tufayli mamlakatimizda shakllanayotgan pedagogika nazariyasi va amaliyotida xam yangiliklar, izlanishlar, muamollar namoyon bo'lmoqda. Ana

shunday muammolardan biri *barkamol shaxsni shakllantirish texnologiyasini* asoslash muammosidir.

Malumki, talim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda malum bir maqsad belgilab olinadi, unga erishishning meyoriy-huquqiy asoslari qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi. Demak, talim-tarbiya jarayonini amalga oshirish oldidan malum tizimda uzviy loyihalash, malum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda "barkamol-ijodkor shaxsni shakllantirish" ham malum pedagogik tizimning loyihasidir. Yani barkamol shaxs tarbiyasining maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, uning o'ziga xos texnologiyasi mavjud.

Demak, ijtimoiy hayotda insonni dunyoni o'zgartiruvchi, qudratli kuch sifatida uning manfaatlarini himoya qilgan xolda, ko'p qirrali ijodiy imkoniyatlarini beqiyosligini tushungan tarzda inson mohiyatini anglab etish, uning borlig'i, hayotda tutgan o'рни va hayoti manosi ochib berishga munosabatning o'zgarishida namoyon bo'lmoqda. Bu esa shaxsni tarix, jamiyat va o'z xayotining obekti sifatida bilishi shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatini vujudga kelgan bir sharoitda insonni ijodkor, erkin shaxs sifatida shakllantirishni taqozo etadi.

Shuning uchun hozirgi davrda **shaxsni tarbiyalash modelini** Prezidentimiz tariflari, mutafakkirlarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslanib quyidagicha belgilashga harakat qildikki, bu pirovard natijada talim-tarbiya tizimida barkamol-ijodkor shaxs tarbiyasining bir butun texnologiyasini tashkil qiladi:

- ◆ Shaxs tarbiyasi.
- ◆ Tarbiyaning tarkibiy qismlari aqliy tarbiya, manaviy-axloqiy mehnat tarbiyasi va kasbga yo'llash, huquqiy tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya.
- ◆ Tarbiya mazmuni barkamol shaxs egallashi zarur bo'lgan asosiy xislatlar, fazilatlar.

- ◆ Tarbiya metodlari muamalarini hal etish, rag‘batlantirish, ishontirish, suhbat-munozara, o‘rnak ko‘rsatish, maruza, tajriba-kuzatish, tushuntirish, o‘git-nasihat, majbur etish va boshqalar.
- ◆ Tarbiya vositalari milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o‘quv-tarbiya jarayoni, oila, mahalla, anana va udumlar, ommaviy axborot vositalari, sayohatlar, badiiy adabiyot va boshqalar.

Shunday qilib, **barkamol inson** - bu o‘zida manaviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o‘zligini va o‘z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, marifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan etuk, yuksak istedodli va salohiyatga ega bo‘lgan manaviy jihatdan etuk, axloqan pok, jismonan sog‘lom, hayot go‘zalliklarini his eta oladigan ijodkor shaxs tushuniladi. Zamonaviy talim-tarbiya tizimi oldida turgan **muhim vazifalardan** biri mana shunday shaxsni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir. Shaxsning bu tarifi hozirgi davrda katta ahamiyatga ega va amalda inson shaxsi tarbiyasining etaloni (namunasi) bo‘lib hisoblanishi va talim-tarbiya tizimida barkamol shaxs tarbiyasi texnologiyasiga asos bo‘lishi mumkin.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta etiborning boisi shundaki, faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo‘la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan talim-tarbiya jarayonidagina uyg‘onishi, taraqqiy etishi va shaxs kamolotini taminlash mumkin. Har bir pedagog o‘quvchilarning intellektual imkoniyalarini maksimal ishga solish yo‘lini izlab topishi lozim. Yoshlarimiz orasidan iqtidorli va istedodlisini izlab topish uchun ularning umumiy o‘qish va o‘zlashtirish jarayoniga qarab baho berishni noto‘g‘ri deb hisoblaymiz. Chunki bolaning aniq bir kasb-korga yoki mutaxassislikka qiziqishi, malum ijodiyot bilan bandligi barcha o‘quv jarayonini qamrab ola olmaydi. Demak, barkamol shaxs jamiyatimiz taraqqiyotining poydevori. Shuning uchun uni tarkib toptirish hozirgi davrning muhim davlat ahamiyatiga molik vazifasi xisoblanadi. Quyidagi masalalar mohiyati navbati bilan magistrlik dissertatsiya ishimizda ochib berildi. Har bob buyicha esa xulosalar alohida ishlab chiqarildi.

ҶОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Давлат хужжатлари:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Талим ҳақида»ги Қонуни, Т., 1997 й.
2. «Қадрлар тайёрлашнинг миллий дастури», Т., 1997 й.
3. И.А.Каримов «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори», Т., 1997 й.
4. И.А.Каримов «Юксак маънавият – енгилмас куч», Т., 2008 й.
5. И.А.Каримов «Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида», Т., 2011 й.
6. «Миллий истиклол мафкураси», Т., 2001 й.
7. «2012 йил - Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури, Т., 2012 й.

2. Махсус адабиётлар:

8. А.Н.Леонтьев «Избр. психологические произведения», М., 1983 г.
9. Л.С.Выготский «Педагогическая психология», М., 1990 г.
10. А.Анастаси «Психологическое тестирование», в 2-х книгах, М., 1992 г.
11. А.Анастаси «Дифференциальная психология», – СПб., 2002 г.
12. В.Бодалев и др. «Общая психодиагностика», М., Изд-во МГУ, 1987 г.
13. В.Н.Дружинин «Психология общих способностей», М., 1995 г.
14. В.А.Якунин «Педагогическая психология», Санкт-Петербург, 2000 г.
15. Г.С.Абрамова «Возрастная психология», М., «Академия», 1999 г.
16. Л.Ф.Обухова «Возрастная психология», М., 1999 г.
17. Р.М.Грановская «Элементы практической психологии», Л., ЛГУ, 1988 г.
18. Л.Ф.Бурлачук «Психология личности», Киев, «Здоровье», 1989 г.
19. Г.Андреева «Социальная психология», Учебник для вузов, М., 1999 г.
20. В.М.Блейхер, Л.Ф.Бурлачук "Психологическая диагностика интеллекта и личности", Киев, Высшая школа, 1978 г.
21. А.А.Реан и др. «Психология и педагогика», С-Петербург, 2001 г.
22. А.А.Радугин «Психология и педагогика», Москва, 1999 г.
23. Б.Б. Айсмонтас «Педагогическая психология», Схемы и тесты, М., 2002 г.
24. Р.С.Немов «Психология», В 3-х книгах, М., 2000-2001 гг.
25. В.Я.Ляудис «Формирование учебной деятельности студентов», М., 1989 г.
26. «Психологический словарь» под ред. В.В.Давыдова, М., 1983 г.
27. Н.С.Лейтес «Возрастная одаренность школьников», М.: Мысль, 2000 г.
28. Н.С.Лейтес «Психология одаренности детей и подростков», М., 2000 г.
29. Э.А.Голубева «Способности и индивидуальность», М., Прометей, 1994 г.
30. М.А.Холодная «Психология интеллекта», СПб., 2000 г.
31. В.А.Токарева «Психология нравственного развития личности студента», Ташкент, «Фан», 1989 г.

32. М.Г.Давлетшин, С.М.Туйчиева «Умумий психология», Т., 2002 й.
33. М.Г.Давлетшин ва б. «Ёш даврлари ва педагогик психология», Т., 2004 й.
34. В.Каримова «Психология», Т., 2002 й.
35. Э.Ғозиев ва б. «Психология методологияси», Т., 2002 й.
36. Э.Ғозиев, К.Мамедов «Қасб психологияси», Т., 2003 й.
37. Э.Ғозиев «Олий мактаб психологияси», Т., 1996 й.
38. Э.Ғозиев, Ш.Азизова «Ташкилий психология», Т., 1999 й.
39. Э.Ғозиев «Психология», Т., «Ўқитувчи», 1994 й.
40. Э.Ғозиев «Психология высшей школы», Т., 2008 г.
41. Э.Ғозиев, Г.Тулаганова «Педагогик психология асослари», Т., 1997 й.
42. К.Турғунов «Психология терминларининг русча - ўзбекча изоҳли лўғати», Т., 1975 й.
43. К.Хошимов, С.Нишанова «Педагогика тарихи» (дарслик), Т., 2005 й.
44. Ж.Хасанбоев ва б. «Педагогика назарияси (дидактика), Т., 2011 й.
45. Н.Азизходжаева «Педагогические технологии и педагогическое мастерство». Т.: ТГПУ им. Низами, 2003 г.

3. Интернет сайт материаллари:

46. www.bilimdon.uz, www.Kamolot.Uz., www.tatu.uz, www.ziyonet.uz,
47. www.de.uz. www.zadarya.freenet.uz.
48. www.vlados.ru, www.psychologies.ru, www.piter.press.ru.
49. www.psyedu.ru, www.psy.net.ru, www.psylib.org.ua.
50. www.psy.piter.com. (Психпортал, Столица сетевой психологии)

CD дисклар:

«Психология» фанидан электрон дарслик (муаллиф: доц.А.Н.Урумбаева),
Нукус, НДПИ, 2009 й.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti (Shifr: 5A140802)

«Psixologiya» mutaxassisligining bitiruvchi kurs magistranti

Urazimbetova Nargiza Qadirbaevnaning

«Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda
psixologiya fanining o'рни va ahamiyati»
mavzusidagi yozilgan magistrlik dissertatsiya ishiga

ILMIY RAHBAR HULOSASI

Mavzuning dolzarbligi: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning g'oyasi, maqsadi, fikrlar qamrovi teranligi bilan katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Mazkur dastur, uni ro'yobga chiqarish omillari, jamiyatda zamonaviy talimning yuksak qadriyatlarini anglab etish hissini yuzaga keltiradi. Bu qadriyatlar **barkamol shaxsni** shakllantirishga, mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojiga o'z ijobiy tasirini o'tkazmoqda va bu jarayon takomillashib boraveradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «**O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat**» g'oyasiga asoslanadi va unga xizmat qiladi. Mustaqil shaxsni shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo'lib, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlarning va, ayniqsa, talim tizimi mazmunining takomillashtirilishini, ikkinchi tomondan esa bevosita ushbu masalani amalga oshirishni taminlovchi yagona tarbiya tizimini barpo etish lozimligini taqozo etadi.

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi: To'zulishi buyicha dissertatsiya qoidaga muvofiq **3-ta bo'limdan** iborat: kirish, asosiy va yakuniy.

Kirish bo'limida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, predmeti va obekti, ishchi gipotezasi, ilmiy bazasi, muammoning tadqiq kilinganlik darajasi, dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi, amaliyotga tadbiq qilinishi, ilmiy tadqiqotning metodologik asoslari, tadqiqotning nazariy ahamiyati va amaliy zarurligi, natijalarning nashr etilishi, tadqiqot ilmiy metodlari hamda dissertatsiyaning tarkibi va xajmi haqida keng ko'lamda aytilgan. Asosiy bo'limi **3-ta bobga** bo'lingan bo'lib, uning «Talim tizimidagi «o'zbek modeli»ning taraqqiyoti va uning jaxon tsivilizatsiyasidagi o'рни» nomli **birinchi bobida** 3-ta paragraf mavjud. «Hozirgi zamon psixologiya fani va uning ahamiyati» nomli ishning **ikkinchi bobida** 3-ta paragraf mavjud. «Milliy dastur»da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fanining o'рни va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari va uning natijalari» nomli ishning **uchinchi bobida** 4-ta paragraf mavjud.

Yakuniy bo'limida ishga umumiy xulosa chiqarilib, takliflar berilgan. Ishning so'ngida esa foydalanilgan adabiyotlar tizimi tavsiya etilgan, shu jumladan, Internet materiallari ham keltirilgan. Ilovalar ham berilgan. Ish yaxshi yozilgan. Uning mazmuni, to'zulishi, xajmi va bezalishi buyicha nuqsonlar yuq.

Bajarilgan ishga talabaning munosabati: Magistrant tamonidan katta ilmiy tadqiqot ishi o'tkazilgan. Ishning boshida qo'yilgan maqsad va vazifalar bajarilgan. Ilgari so'rilgan ishchi gipoteza isbotlangan. Ish jarayonida magistrant mas'uliyatliligi, mehnatsevarligi, erkin fikrlashi, jiddiy munosabatini, tartib-intizomni va ijodiy qobiliyatlari singari o'zining ijobiy tamonlarini namoyon qildi. Maslaxatlar davomida ko'rsatilgan kamchilik va xatoliklarni magistrant o'z vaqtida faol tuzatib bordi.

Talabaning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish ko'nikmalari: Ishning so'ngida esa foydalanilgan adabiyotlar tizimi tavsiya etilgan (50-dan ortiq), shu jumladan, Internet materiallari, elektron darsliklar keltirilgan hamda taqdimot materiallari (slyaydlar) tayyorlangan.

Talabaning tadqiqotchilik ko'nikmalari: talaba mavzu buyicha qator ilmiy manbalar va maxsus adabiyotlarni tadqiq qilgan, ularni tahlil qilish va umumlashtirishda ilmiy-tadqiqot metodlardan foydalangan, jumladan, ko'zatish, anketa, test, so'hbat va eksperiment metodlari; o'quv yurti talim-tarbiya tajribasini o'rganish metodi va hokazo.

Talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ya'ni pedagogik topshiriqlarni echa olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va hokazo: talaba ilmiy-tadqiqot va diplom oldi pedagogik amaliyot borasida oliy o'quv yurtidagi talim-tarbiya jarayonini o'rgandi, tajriba jarayonidagi aniqlangan va tuplagan malumotlarni dissertatsiya ish mazmuniga kiritdi.

Olingan natijalarning amaliyotga ta'lim jarayoniga qo'llash imkoniyati hamda talabaning mutaxassisligi bo'yicha beriladigan kvalifikatsiyani olishga loyiqligi: Tayyorlangan dissertatsiya ishi yakunlangan ilmiy tadqiqot bo'lib xisoblanadi. Ishning mazmuni, ko'lam, bayon etilishi, bezalishi buyicha xato-kamchiliklar yo'q. Ish ozoda, toza va savodli yozilgan. Magistrlik dissertatsiya ishlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi. Ilmiy rahbar sifatida bu ishni men yaxshi bajarilgan deb xisoblayman, uni ilmiy tadqiqot sifatida rasmiy ximoyaga tavsiya etaman va - «a'lo» bahosiga baholayman.

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots. Urumbaeva A.N.

Nukus shahri, iyun, 2012 yil

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти (Шифр: 5А140802)

«Психология» мутахассислигининг битирувчи курс магистранти

Уразымбетова Наргиза Қадирбаевнанинг

«Кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури»да қўйилган вазифаларни амалга

оширишда психология фанининг ўрни ва аҳамияти»

мавзусидаги ёзилган магистрлик диссертация ишига

Т А Қ Р И З

Магистрант **Уразымбетова Наргиза Қадирбаевна** *«Кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури»да қўйилган вазифаларни амалга оширишда психология фанининг ўрни ва аҳамияти»* номли мавзунинг магистрлик диссертация иши қилиб тўғри танлаган.

Ҳаммага маълум, 1997 йили қабул қилинган «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ҳалқимизнинг ижтимоий онига чуқур киритилди. Ундаги кадрлар тайёрлаш миллий модели бу – шахс, давлат ва жамият, ўзлуksиз таълим, фан, ишлаб чиқаришнинг ўзвий бирлиги ва ҳамкорлиги, уларнинг ўзаро бир-бирига алоқасини акс эттиради. Хўжжатта қўйилган вазифаларни амалга оширишда психология фанининг ўрни ва аҳамияти эса алоҳида белгиланган. Шу боис бу иш ўзининг долзарблиги, зарурлиги, янгилиги билан сифатланади ва ўзига хослиги билан ажралиб туради.

Тузулиши буйича у қоидага мувофиқ **3-та бўлим**дан иборат: кириш, асосий ва якуний. Кириш бўлимида мавзунинг долзарблиги, тадқиқот мақсади, вазифалари, предмети ва объекти, ишчи гипотезаси, илмий базаси, муаммонинг тадқиқ қилинганлиги даражаси, диссертациянинг илмий-тадқиқот ишлар режалари билан боғлиқлиги, амалиётга тадбиқ қилиниши, илмий тадқиқотнинг методологик асослари, тадқиқотнинг назарий аҳамияти ва амалий зарурлиги, натижаларнинг нашр этилиши, тадқиқот илмий методлари ҳамда диссертациянинг таркиби ва ҳажми ҳақида кенг кўламда айтилган.

Асосий бўлими **3-та боб**га бўлинган бўлиб, унинг *«Таълим тизимидаги «ўзбек модели»нинг тараққиёти ва унинг жаҳон цивилизациясидаги ўрни»* номли **биринчи боби**да *3-та параграф* мавжуд бўлиб, уларда куйидаги масалалар тадқиқ қилинган: «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ва унинг моҳияти, кадрлар тайёрлаш миллий модели ва унинг таркибий қисмлари, кадрлар тайёрлаш миллий моделини ҳаётга татбиқ этишнинг аҳамияти, таълим соҳасидаги давлат сиёсати мазмуни, таълим муассасаларида давлат ва жамият бошқарувининг психологик – педагогик асослари. Ушбу масалалар буйича чуқур мулоҳазалар юритилган ва амалий тавсиялар берилган.

«Ҳозирги замон психология фани ва унинг аҳамияти» номли ишнинг **иккинчи боби**да *3-та параграф* мавжуд бўлиб, уларда: психология тарихига

янгича ёндашув, психологиянинг предмети ва фанлар тизимида тутган ўрни, шахс ва унинг фаоллиги, фаолият турлари, ижтимоий хулқ мотивлари ва шахс мотивацияси, эҳтиёжлар фаолликнинг манбаи сифатида, шахснинг установкаси ёки англанилмаган майллари ҳақида тушунчалар берилиб тўлиқ, батафсил маълумотлар тақдим қилинган.

«Миллий дастур»да қўйилган вазифаларни амалга оширишда психология фанининг ўрни ва аҳамиятини очиб беришга қаратилган тажриба-синов ишлари ва унинг натижалари» номли ишнинг **учинчи боби**да 4-та параграф мавжуд бўлиб, уларда: ёшларнинг интеллектуал-ижодий салоҳиятини ривожлантиришнинг мақсад ва вазифалари, интеллектуал-ижодий салоҳиятни ривожлантириш механизмлари, ёшларнинг иждодий интеллектуал салоҳиятини ўрганишнинг тажрибадаги натижалари, таълим жараёнида ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишнинг педагогик-психологик асосларини яратиш, ёшларнинг интеллектуал сифатларини аниқлаш ва рағбатлантириш усуллари ҳамда интеллектуал ва иждодий сифатларнинг баркамол шахсни ривожлантиришдаги аҳамияти ҳақида муаммолар жиддий таҳлил қилинган. Шунингдек, тажриба-синов жараёнида ўтказилган амалий ишлар ва иқтидорли талабаларга оид қизиқарли маълумотлар тақдим этилган. Уйлаймизки, ишнинг бу бўлими ўқитувчи-педагоглар ва барча талаба-ёшларда, албатта, диққат-эътиборини уйғотади.

Якуний бўлимида ишга умумий хулоса чиқарилиб, тақлифлар берилган. Ишнинг сўнгида эса фойдаланилган адабиётлар тизими тавсия этилган, шу жумладан, Интернет материаллари ҳам келтирилган. Тақдимот сифатида иловалар ҳам берилган. Иш яхши ёзилган. Унинг мазмуни, тузўлиши, ҳажми ва безалиши буйича камчиликлар йук. Магистрлик диссертация ишларига қуйиладиган талабларга тўлиқ жавоб беради, яъний у назарий ва амалий аҳамиятга эга, уни илмий тадқиқот сифатида оммавий химояга тавсия этаман. Юқорида таъкидлаганларнинг ҳаммасини ҳисобга олган ҳолда ва расмий оппонент сифатида мен ишни **«аъло» - «5» баҳосига** баҳолайман.

Расмий оппонент: доцент,
психология фанлари номзоди:

Клычева З.П.

Нукус -2012 йил

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти (Шифр: 5А140802)
«Психология» мутахассислигининг битирувчи курс магистранти
Уразымбетова Наргиза Қадирбаевнанинг
*«Кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури»да қўйилган вазифаларни амалга
оширишида психология фанининг ўрни ва аҳамияти»*
мавзусидаги ёзилган магистрлик диссертация ишига

ТАҚРИЗ

Мен магистрант талаба **Уразымбетова Наргиза Қадирбаевнанинг**
*«Кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури»да қўйилган вазифаларни амалга
оширишида психология фанининг ўрни ва аҳамияти»* номли мавзуида ёзган
магистрлик диссертация иши билан танишиб чиқтим. Менинг назаримда, бу мавзу
бугунги кунда ўта долзарб ва катта аҳамиятга эга.

Маълумки, ҳар тамонлама ривожланган, баркамол шахс фуқарони
шакллантириш ғояси Президент И.А.Каримов томонидан ишлаб чиқилди ва
асослаб берилди. Президентимиз асарларида, шунингдек, «Кадрлар тайёрлаш
миллий дастури»да олга сўрилган *шахс тўғрисида концепция* (ғоялар) миллий
мустақиллигимиз шароитида шахснинг моҳияти, унинг ривожланиши, тарбияси,
таркиб топишини истиқлол ғоялари асосида изохлаш ва таҳлил этишга имконият
яратди. Шахс муаммоси эса психология фанининг марказий масалаларидан бири
ҳисобланиб, у ўз навбатида «ўзбек модели»нинг асосини ташкил қилади.

Магистрант талаба **Уразымбетова Наргиза** ўз ишида ушбу масалалар
ҳақида чуқурроқ тушунча беришга ҳаракат қилган ва фаоллик кўрсатган. Ишга
режа тўзулиб, шу режа асосида кетма-кетлик соқланиб, тадқиқотнинг кўламли
мазмунини тўғри очилган. Иш умуман **3-та бўлим, 3-та боб ва 10-та параграф**тан
иборат. Ишни ёзишда бир қанча услуб ва методлар қўлланилган. Айниқса,
диққат-итиборга сазовор бўлган диссертациянинг тамони – бу унинг учинчи боби
ва ундаги иқтидорли талабаларга оид келтирилган методикалар ҳамда тавсиялар.
Ишта талабаларга ва таълим тизимидаги фаолият кўрсатаётган барча ўқитувчи-
педагогларга берилган хулосалар ва тажрийбалар буйича улар ўзларининг
қизиқтирган масалаларин ўрганиб топиб олишга бўлади. Ишта кўплаган тегишли
илмий адабиётлар ва манбалардан ҳамда Интернет материалларидан кенг
фойдаланилган. Бир қанча слайдлар тайёрланган.

Хулоса қилиб айтганда, битирувчи магистрант талаба **Уразымбетова
Наргизанинг** магистрлик диссертация иши шу сингари ишларига қўйиладиган
талабларга тўлиқ жавоб беради. Унинг ёзилиши, тўзилиши, ҳажми, мазмунини ва
безалиши буйича камчиликлар йўқ. Уни оммавий химоя қилишга тавсия қиламан
ва «**5**» - «**аъло**» баҳосига баҳолайман.

Ташқи тақризчи:

К.Убайдуллаев номидаги РПКҚТМОИ
«педагогика, психология ва менежмент»
кафедраси мудири, п.ф.н., доцент:

И.Б.Алланиязов

Нукус, 2012 йил

«Психология» магистри академик дэрежесин алыў ушын талабан
Уразымбетова Наргиза Қәдирбаевнаның
5А 140802 - «Психология» қәнийгелиги бойынша
«Кадрлар тайярлаўдың миллий дәстури»нде қойылған ўазыйпаларды әмелге
асырыўда психология илиминиң орны ҳәм әҳмийети»
атлы темадағы таярлаған магистрлик диссертациясының

Р Е З Ю М Е С И

Таяныш түсиниклер: «Кадрлар тайярлаўдың миллий дәстури», «Кадрлар тайярлаўдың миллий модели», ҳәзирги заман психология илими өзгешеликлери, бәркамал шахс, жаслардың интеллектуал-дөретиўшилик салаҳияты, зийрек талабалар.

Изертлеў предмети: «Кадрлар тайярлаўдың миллий дәстури» ҳәм ҳәзирги заман психология илими өзгешеликлери.

Изертлеў объекти: жоқары оқыў орынлары, атап айтқанда, Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институтындағы тәлим-тәрбия процесси ҳәм зийрек талаба жаслар.

Изертлеў жумысының мақсети: тәлим тизиминдеги «Кадрлар тайярлаўдың миллий дәстури» ҳәмде «өзбек модели»нің раўажланыў барысын көрсетиў, сондай-ақ, бул процесстеги психология илиминиң орны ҳәм әҳмийетин, әсиресе, зийрек жасларға тән өзгешеликлерди анализ етиў ҳәм тийисли усынысларды ислеп шығыў.

Изертлеўдин исши гипотезасы: «Кадрлар тайярлаўдың миллий дәстури»нде қойылған ўазыйпаларды әмелге асырыўда психология илиминиң орны ҳәм әҳмийети уллы, себеби ол өзине тән өзгешеликлерге ийе (атап айтқанда, зийрек талабалар психологиясы) ҳәм оны изертлеў ҳәмде анализ етиў тәлим тизиминдеги «өзбек модели»нің раўажланыўы ҳәм оның жәхән цивилизациясындағы орнын белгилеў ушын бүгинги күнде актуал машқала болып есапланады.

Изертлеўдин илимий базасы: сыпатында Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты белгиленди. Изертлеўде бул оқыў орнының оқытыўшы-педагоглары, қәнийге-хызметкерлери, педагогикалық жәмәәтлер ҳәмде талаба жаслар қатнасты.